

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**IV KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI
KARIMOVA SOHIBANING**

**“ChINGIZ AYTMATOVNING “SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN
OLAPAR” QISSASINING (kompleks) TAHLILI”
mavzusidagi**

*5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2011-2012 o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Sh.Davronova**

Buxoro-2012

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**IV KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI
KARIMOVA SOHIBANING**

**“CHINGIZ AYTMATOVNING “SOHIL YOQALAB
CHOPAYOTGAN OLAPAR”QISSASINING (kompleks) TAHLILI”
mavzusidagi**

*5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2011-2012 o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent Sh.Davronova

Rasmiy hakam:

filologiya fanlari doktori

N.Afoqova

Buxoro-2012

Ma`qullayman _____
 Ilmiy rahbar: f.f. nomzodi
 dotsent Sh.Davronova

Tasdiqlayman _____
 O`zbek filologiyasi
 kafedrası mudiri
 Q.R. To`xsanov

«26» avgust, 2011 y.

«26» avgust, 2011 y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Karimova Sohibaning “Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasining (kompleks) tahlili” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR JADVALI

	ISHNING MAZMUNI	BAJARILISH MUDDATI	NATIJA
1	Malakaviy bitiruv ishi mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlatib olish va rejalarini rasmiylashtirish	avgust	ijro etildi
2	Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy-usuliy materiallarni o`rganish	sentabr, oktabr, noyabr	ijro etildi
3	Mavzu bo`yicha umumta`lim darsliklarida aytilgan fikrni o`rganish	oktabr, noyabr	ijro etildi
4	Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni o`rganish. Adabiyotlar ustida ishlash.	sentabr-yanvar	ijro etildi
5	To`plangan materiallarni sistemalashtirish	yanvar	ijro etildi
6	Malakaviy bitiruv ishining 1-bobini tayyorlash	fevral	ijro etildi
7	Malakaviy bitiruv ishining 2-bobini tayyorlash va xulosalash	mart	ijro etildi
8	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	mart-aprel	ijro etildi
9	Malakaviy bitiruv ishining borishi to`g`risida kafedraga hisobot berish	may	ijro etildi
10	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish	may	ijro etildi
11	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may	ijro etildi

Bitiruvchi kurs talabasi
Ilmiy rahbar

Karimova Sohiba
 Sh.Davronova

**Buxoro Davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi kafedrasining
1-yig`ilishi bayonnomasidan**

KO`CHIRMA

Buxoro shahri

2011- yil 26-avgust
Qatnashdilar: kafedraning barcha
a`zolari va bitiruvchi kurs talabalari

KUN TARTIBI

**2011-2012 o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari
mavzulari tasdig`i**

Yig`ilish kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri D. Yo`ldosheva qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus komissiya tekshirib chiqqanligini qayd etdi. Shundan keyin malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati yig`ilish kotibasi tomonidan o`qib berildi.

Malakaviy bitiruv ishlari mavzularini tasdiqlash taklifini yig`ilganlar qo`llab-quvvatladilar.

O`zbek tilshunosligi kafedrası yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. Bitiruvchi kurs talabasi Karimova Sohibaning malakaviy bitiruv ishi “Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasining (kompleks) tahlili” mavzusi etib tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Karimova Sohibaning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Sh.Davronova ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

D.N.Yo`ldosheva

Yig`ilish kotibasi

G. Samandarova

**Buxoro Davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi kafedrasining
10-yig`ilishi bayonnomasidan**

KO`CHIRMA

Buxoro shahri

2012-yil 30-aprel

Qatnashdilar: kafedraning barcha
a`zolari va bitiruvchi kurs talabalari

KUN TARTIBI

**2011-2012 o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlarini
himoyaga tavsiya etish**

Yig`ilishda 4-kurs talabasi Karimova Sohibaning f.f.nomzodi, dotsent Sh.Davronova ilmiy rahbarligida “Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasining (kompleks) tahlili” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishining yakunlanganligi to`g`risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini hisobga olib, o`zbek filologiyasi kafedrası yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. 4-kurs talabasi Karimova Sohibaning f.f.nomzodi, dotsent Sh.Davronova ilmiy rahbarligida “Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasining (kompleks) tahlili” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Karimova Sohibaning malakaviy bitiruv ishiga filologiya fanlari doktori Nodira Afoqova rasmiy hakam etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Q.R. To`xsanov

Yig`ilish kotibasi

G. Samandarova

Reja:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

- a) Mavzuning o'rganilish darajasi va dolzarbligi
- b) Ishning maqsad va vazifalari
- c) Tadqiqot manbai
- d) Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari
- e) Ishning amaliy ahamiyati
- f) Ishning tuzilishi.

I bob. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" – qissa janrining beqiyos namunasi

- 1.1. Ch.Aytmatov buyuk so'z san'atkor.
- 1.2. Asarning mavzu va g'oyasi.
- 1.3. Asarda shakl va mazmun mutanosibligi.

II bob. Asardagi obrazlar olami.

- 2.1. Qissadagi qahramonlarga tavsif.
- 2.2. Ramziy va majoziy timsollar.

III bob. Asarning badiiy xususiyatlari.

- 3.1. Asarda tabiat tasviri.
- 3.2. Qissadagi mifologik talqinlar.
- 3.3. Asarda tarjimon mahorati.

IV. Xulosa.

Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon adabiyoti tarixida ko'plab qissa janriga oid asarlar yaratilgan. Ayniqsa, "Shoh Mashrab qissasi", "Ibrohim Adham qissasi", "Qisasi Rabg'uziy" kabi mumtoz asarlar turkiy adabiyotda yaratilgan qissalarning nodir namunalaridir. Bu janr taraqqiyoti XX asr adabiy jarayonlarda ham salmoqli o'rin egallaydi. Shu jihatdan, qirg'iz adabiyotining buyuk namoyondasi Chingiz Aytmatov qissalari g'oyat ahamiyatlidir. "Jamila", "Bo'tako'z", "Sarvqomat dilbarim", "Alvido, Gulsari", "Birinchi muallim" kabi qissalar adib ijodiy faoliyatining samarasidir. Bu mashhur qissalar qatorida yozuvchining "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasi ham go'zal nasriy asardir. Unda ilgari surilgan g'oya, ramziylik ifodasi, shakl va mazmun birligi o'ziga xos tarzda ko'ga tashlanadi.

Garchi, Chingiz Aytmatov ko'plab asarlari tahlil-u talqinlar qilinib, tadqiqot obyektlari bo'lgan esa-da, "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasi deyarli o'rganilmagan. Shunga ko'ra, "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasini badiiy tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Chingiz Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasining jahon xalqlari adabiyotidagi, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotidagi qissachilik an'analari, asardagi o'ziga xos qissa janri namunasi ekanini, undagi milliy an'analar, umuminsoniy tamoyillarni ko'rsatish ushbu malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadidir.

Ayni maqsadni yuzaga chiqarmoq uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim topiladi:

- Qissaning badiiy xususiyatlarini tahlillar asosida ko'rsatish;
- Tahlil obyekti sifatida olingan har bir jihatini aniq dalillarda ochib berish;
- Tahlil jarayonida asarning kompleks tomonlarin adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish;
- Asar tahlilida adib mahorati va tarjimon qobilyatini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Tadqiqot manbai. Ch.Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasi shuningdek, yozuvchining boshqa ko’plab asarlari hamda adib ijodiga bag’ishlangan tadqiqotlar hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tahlil usullari. Ishning metodologik asosini umuminsoniy g’oyalar tamoyili tashkil etadi. Bu yozuvchining asarlaridan anglashiladigan mazmunni anglash hamda hozirgi zamon adabiyotshunosligi erishgan ilmiy-nazariy natijalarga tayaniladi va qiyosiy-chog’ishtirma tavsifiy usul, qiyosiy-tarixiy tahlil usullari asos qilib olindi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ish qissa mavzusining badiiy ishlanish jarayonini kuzatish asosida qissa janriga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zamirida ma’lum xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, undan jahon, turkiy xalqlar adabiyotining ilmiy tarixini yaratishda, badiiy ta’lim mazmunini yana teranlashtirishda, oliy va o’rta umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun jahon adabiyoti tarixi fani bo’yicha darsliklar, o’quv qo’llanmalari yaratish, tavsiyanomlar ishlab chiqishda, maxsus kurslar o’qishda, g’oyaviy-axloqiy ishlarda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Ishning umumiy tavsifi. 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I bob. “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissa janrining beqiyos namunasi.

1.1. Chingiz Aytmatov – buyuk soʻz sanʼatkori.

XX asr oʻrtalarida turkiy xalqlarning asl farzandi buyuk inson Chingiz Aytmatov ijod maydoniga keldi. Uning har bir asarida millat dardi, his – tuygʻulari, oʻzlikni anglash, yakdillik gʻoyalari ilgari surildi. Adibning eng yaxshi asarlari jahon adabiyoti durdonalari qatoridan oʻrin oldi. Kitoblari uslubi jihatdan ham, koʻtarilgan falsafiy masalalariga koʻra ham bir-biridan farq qiladi, shu bilan birga ularning umumiy jihatlari ham koʻzga tashlanadi. Shu boisdan muallifning har bir asarini oradan vaqt oʻtishi bilan qayta-qayta oʻqiging keladi va har gal yangi-yangi jihatlarni kashf etasan. Aytmatov asarlarining kitobxonni ayrica hayajonga soladigan taʼsir kuchi jamiyatda pishib yetilgan muammolar oʻrtaga tashlanganidadir.

Yozuvchi ijtimoiy voqea – hodisalarni kuzatish va tahlil qilishda noyob isteʼdodga ega donishmand faylasuf kishi ruhiyatining nozik torlarini cherta oladigan sehrigar sanʼatkordir.

Har bir ijodkor haqida fikr yuritganda uning ijod yoʻli bilan bir qatorda tarjimai holiga eʼtibor qaratish ham lozim hisoblanadi.

Chingiz Aytmatov Qirgʻizistonning Talas vodiysidagi Shakar qishlogʻida tavallud topgan. Otasi Toʻraqul Aytmatov Avliyootadagi rus tuzem maktabini bitirgan ziyoli kishi, keyinchalik shaxsga sigʻinsh qurboni boʻlgan. Onasi Nayma Aytmatova ham oʻqimishli ayol boʻlgan. Chingiz dastlab rus, soʻngra qirgʻiz maktabida oʻqiydi. Avliyootadagi zooveterinariya texnikumini, Qirgʻiziston qishloq xoʻljalik institutini tugatadi. 3 yil zootexnik boʻlib ishlaydi. Moskvada yozuvchilar uyushmasi qoshidagi oily adabiyotchilar kursini (1956-1958) bitiradi. “Литературный Киргизистан” jurnali bosh muharriri, “Правда” gazetasining muxbiri, kinematografchilar uyushmasi raisi, Qirgʻiziston Yozuvchilar uyushmasi rahbari va juda koʻplab joylarda ishlagan.

Adibning ilk badiiy ijod namunasi “Jamila” (1959) qissasi juda koʻp tillarga tarjima qilingan. “Bu qissani “Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa”, deb yuksak baho bergan edi Lui Aragon.

U qirg'iz va rus tillarida ijod qildi. "Birinchi muallim"(1962), "Somon yo'li", "Ona yer" (1963), "Alvido, Gulsari" (1966), "Yuzma yuz", "Sarvqomat dilbarim", "Bo'tako'z", "Oq kema", "Erta qaytgan turnalar", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" kabi qissalarning, "Asrga tatigulik kun" (1980), "Qiyomat" romanlarining muallifidir. Bu asarlarining deyarli barchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Chingiz Aytmatov ilk ijod namunalari bo'lmish "Gazetchi Dzyuydo" (1952) asaridan "Hoshim" (1952), "Oq yomg'ir" (1954) hikoyalarigacha endigina badiiy ijod maydoniga kirib kelgan bo'lishiga qaramasdan, bu hikoyalar qaysidir jihati bilan o'quvchi qalbini o'ziga tortadi.

Yozuvchi har bir asarining voqeasini hayotdan oladi. Voqealarga sayqal berib, go'zallashtirib yana hayotga qaytaradi. Hayotdagi insonlar qiyofasini chizib, yana inson ruhiyatini bezash uchun beradi. U o'z asarlarida mehnatni ulug'laydi. Ayni chog'da mehnatkash inson obrazini juda go'zal tarzda namoyon etadi.¹

Ana shunday so'z san'atkorining qalami sehri ila bunyod bo'lgan ijod namunalarida inson taqdiri, kelajagi, qalb tuyg'ulari kechmishlari rangin chizgilarda tasvir etiladi. "Oxirzamon nishonalari" ("Kasandra tamg'asi"), "Tog'lar qulayotgan zamon..." asarlari yozuvchining so'nggi dohiyona qarashlari jamlanmasi bo'ldi.

2008 – yil iyun oyining o'ninchi kunida yigirmanchi asrning buyuk yozuvchisi va allomasi, jamoat arbobi Chingiz To'raqulovich Aytmatov dunyodan o'tdi. Taqdirlar charxpalagi aylanaverarkan hayotga o'z buyuklarini berish bilan birga ularni olib ketaveradi ham. Ammo, Aytmatovning o'rnini bosadigan boshqa bir daho kelarmikan? Xuddi Navoiy, Dostoyevskiy, Tagor, Akutagava, Tolstoy va Pushkinlar takrorlanmagandek, Aytmatov dahosi ham betakror bo'lib, mangulikka singib boraveradi... Chingiz Aytmatov yigirmanchi asrning insoniyat tarixidagi eng fojeali davrning farzandi edi. Bu davr ziddiyatlari buyuk yozuvchi va alloma insonning taqdirini ham chetlab o'tgani yo'q. O'n yoshida urush azoblari, front ortidagi mashaqqatlarini kattalar bilan baham ko'rdi. Qatag'onlarning ikkinchi to'liqini davrida u yigirma yoshdan oshib, davr fojeasini to'la his qila oladigan darajada edi. Ulug' rus adibi Boris Posternak aytganidek: "Biz oddiy odamlar edik.

¹ Ражабова М. Она тили ва адабиёт. Б.: Дурдона, 2012 – й., 124 – бет

Biz davrga aylandik”. Ha, u fojeali va ziddiyatli yigirmanchi yuz yillikning adabiyotdagi timsoli edi. Aytmatov hech qachon millatning yoxud mamlakat yo qit’aning, ng asosiysi davrning yozuvchisi bo’lmagan. Chingizdek daho adib hech qachon bu qobiqlarda qolib ketmasligini kerak edi, shunday bo’ldi ham. U insoniyatning butun yer yuzining ardoqli adibiga aylanib ulgurgan edi. Uni o’zbeklar ham qirg’izlar ham, qozoqlar ham, rus va gurji, faransuz va nemis, ispan va hind, arab va mo’g’ul ham o’ziniki deb bildi va ardoqladi. Yer yuzida uni tanimagan millat, uning asarlari kirib bormagan xonadon kamdam kam topilsa kerak. Insoniyatning ertangi kuni haqida urgan bonglari, Nayman onaning nidolarorqali manqurt o’g’liga emas, balki, o’zini tobora jar yoqasiga olib borayotgan bashariyatga murojaat emasmi: “Sen o’z ismingni bilasanmi, bolam? Hech bo’lmasa otangni otini esla! Otangni oti Do’nanboy... Otangni oti Do’nonboy...”

Bu o’zligini, qadriyatlarini va kechmishini unutib borayotgan, o’z qobig’iga butkul o’ralib olgan XXI asr odamlariga ogohlik qo’ng’irog’i emasmi axir...

Uning beqiyos, betakror qisslari, uning hassos qlamidan to’kilgan durdona asarlari Aytmatov nomining mangu barhayotligining dalili emasmi... “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Oxirizamon nishonalari” romanlari o’tmishda qolgan dahoning kelajak avlodlarga mangu hayqirig’i sifatida asrlardan asrlarga ko’chib yashayveradi. Daholar tog’larga o’xshaydi. Tog’ qanchalik yaqin bo’lsa, uning ulug’vorligini ko’rish ko’zlarimiz imkonidan tashqarida bo’lib, oddiygina tenglikdek tasavvur uyg’otib turaveradi. Tog’dan qanchalik uzoqlashsak, uning naqadar nurviqorligini-yu, osmono’parligini ko’rib hayratga tushamiz. Xuddi shunday Chingiz Aytmatov cho’qqisi ham bizdan olisladi. Uning bo’yi basti ham, ulug’vorligi ham endi ko’z oldimizda to’la namoyon bo’lsa, ajab emas.

“Biz shunchaki bir yozuvchini yo’qotganimiz yo’q, olamshumul INSONni yo’qotganimizni to’laligicha anglab yeta olganimiz yo’q”, deydi adibning yaqinlaridan biri.

Darhaqiqat, biz Aytmatovni qayta kashf etishimiz uchun hali ancha yo’lni bosib o’tishimiz kerak.²

² Абдураззоков Б. Мангуликка дахлдор умр. // Бекажон, 2008 – йил, 20-июн, 50-сон, 7 – бет.

Zamonamizning buyuk yozuvchisi, ulkan davlat hamda jamoat arbobi, butun umrini tinchlik va xalqlar do'stligi uchun baxshida etgan otashqalb inson Chingiz To'raqulovich Aytmatovning vafoti jahon madaniyati uchun ham, zamonaviy adabiyot uchun ham, ijtimoiy tafakkur uchun ham ulkan yo'qotish bo'ldi. Yozuvchi o'z zamondoshlarining ruhiy va ma'naviy izlanishlarini birlashtira bildi, hozirgi zamon ziyolilarining boshlarini qovushtirib, xalqlarni, odamlarni do'stlashtira oldi.

Dunyo tanigan yapon faylasufi va jamoat arbobi, Chingiz Aytmatovning jonajon do'sti Daysaku Ikeda yozuvchi hali hayot paytidayoq bunday deb yozgan edi: "Chingiz Aytmatov shunday bir donishmandki, uning asarlari ko'p zamonlargacha kitobxonlarga ma'naviy oziq beraveradi".

Shvetsariya konferensiyasining O'zbekiastondagi Favqulotda va Muxtor elchisi Peter Burxard Aytmatovni eslab bunday degan edi: "...Biz murakkab, ayni vaqtda ajib bir dunyoda yashayapmiz. Atrofimizda dunyo rivoj topayotir, o'zgarayotir, shukrlar bo'lsinkim, chin insonlar tufayli dunyo yaxshi tomonga o'zgarayotir.

Butun dunyoga mashhur qirg'iz yozuvchisi, faylasuf va gumanist Chingiz Aytmatov ana shunday insonlardan biridir".

Aytmatovning kitoblari, butkul yozuvchilik, jamoatchilik, diplomatic faoliyati va shaxsiy hayoti insoniyatga xalqona, dildan xizmat qilishning oliy namunasi edi.

Chingiz Aytmatovning yozuvchi sifatidagi novatorligiga, fuqarolik mardonavorligiga, jasurligiga dunyodagi millionlab kitobxonlar tahsinlar o'qigani rost, yozuvchining satrlari musiqa kabi jaranglaydi, ularni kitobxon qalbi bilan eshitadi. Bu musiqa to'lqinlarida muhabbat sirlari, ilohiy joziba yashiringan.

Chingiz Aytmatov ijodiy mag'lubiyat achchig'ini toitb ko'rmadi. Yozuvchi hikoyadan-hikoyaga, qissadan- qissaga, romandan-romanga yuksala bordi, hayotning keng qatlariga ko'z tashlay bildi, kishilar munosabatlarining yana chuqur hadalarini tadqiq qila oldi, zamondoshlarining ruhiy – ma'naviy dunyosiga tag'inda teran kira bordi. Bu esa hamma yozuvchilarga nasib qilavermaydi. Chingiz Aytmatov umr bo'yi ijodiy zafarlar quchish baxtiga musharraf bo'lgan noyob

ijodkordir. Chingiz Aytmatovning har bir asari dunyo ahamiyatiga ega voqea bo'lib qolar edi. U yozuvchining qissa va romanlari zamonaviy ziyolilar uchun o'qilishi shart bo'lgan va inteluktual kitoblar toifasiga kirar edi.

Birgina "Tog'lar va dashtlar kitobi" bilan ma'lum va mashhur yozuvchi bo'lib qolgan Chingiz Aytmatov "Alvido Gulsari", "Oq kema", "Sohil bo'ylab chopayotgan Olapar" kabi ramziy qissalari bilan dunyoning madaniy elitasi darajasiga ko'tarildi va "Asrga tatigulik kun", "Kunda", "Oxirzamon nishonalari" ("Kassandra tamg'asi") nomli boqiy romanlari bilan o'z nomini abadiylashtirib tarixdagi eng buyuk siymolar qatoridan o'rin oldi.

Chingiz Aytmatovning iste'todi va xizmatlari butun dunyoda tan olindi va juda yuksak baholandi: Sotsialistik Mehnat Qahramoni (1978), Qirg'iziston Respublikasi Qahramoni (1977), uch marta SSSR Davlat Mukofoti sovrindori (1968, 1977, 1983), adabiyot bo'yicha Lenin mukofoti sovrindori (1963), Viktor Gyugo nomidagi xalqaro mukofot (Fransiya), "Etruriya" adabiy mukofoti (Italiya), adabiyot va san'at sohasidagi mukofot (Avstriya), J.Neru nomidagi xalqaro mukofot (Hindiston), madaniy tashabbuslar O'rta dengiz markazi xalqaro mukofoti (Italiya), Amerikaning "Vijdonga da'vat" ekumenik fondi mukofoti, F.Ryukker nomidagi Bavariya mukofoti (Germaniya), A.Men nomidagi mukofot va boshqalar. Yozuvchi Albert Eynshteyn nomidagi "Jahon fani, adabiyoti va san'ati sohalaridagi mislsiz yutuqlar uchun" katta oltin medali bilan, Tokio sharqiy falsafa institutining "Yer yuzida tinchlik va ravnaq yo'lida, fan va san'atni rivojlantirishdagi ulkan hissi uchun" faxriy medali bilan, Turkiya hukumatining turkiy xalqlarning madaniyatini rivojlantrishdagi hissi uchun oily mukofoti, ko'pgina xorijiy mamlakatlar (Vengriya, Polsha, Rossiya, O'zbekiston) orden va medallari bilan mukofotlandi.

Chingiz Aytmatovning asarlari son-sanoqsiz kitobxonlarni hayajonga solib o'ylantirib qo'yar, kitobxonlar sevikli yozuvchining yangi-yangi asarlarini sabrsizlik bilan kutar edilar. Aytmatovning ijodi badiiy adabiyot bilan bir qatorda o'tkir va publisistika rolini ham bajarar edi. Umuman yozuvchining kitoblari mehrni toblaydigan, sehrlab qo'yadigan, qayta-qayta o'qiladigan dono asarlardir.

Yozuvchi asarlarining butun dunyoda tan olinganini shundan bilsa ham bo'ladiki, YUNESKOning ma'lumotlariga ko'ra XXI asr arafasida Ch.Aytmatovning kitoblari 168 mamlakatda dunyoning 180 tilida 77,0mln. nusxada 860 marta bosilgan. Bu raqam tobora ko'payib bormoqda. Uning ko'pgina asarlari bo'yicha filmlar ishlangan va bu filmlarni hamon kishilar qiziqish bilan tomosha qilmoqdalar.

2003 – yilda Ch. Aytmatovning yetmish besh yilligi YUNESKOning tashabbusi bilan butun insoniyatning madaniy-ma'naviy hayotida ulkan voqea sifatida nishonlandi. Yubiley munosabati bilan uyushtirilgan tantanalarda uning jahon adabiyoti, madaniyati, san'tini rivojlantirishga qo'shgan hissasi qayd qilinishi bilan birga yozuvchining ziddiyatli, notinch global dunyo uchun zarur bo'lgan inoqlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi qayta-qayta ta'kidlandi.

Chingiz Aytmatovning butun ijodiy merosi ezgulik bilan insoniylik, shafqatsizlik bilan johillikka qarshi kurashayotgan dunyoda bebaho mangu kuch bo'lib qolaveradi.

Chingiz Aytmatovning o'zi, shaxsi bir dunyo bo'lsa, ijodi biro lam. Uning ijtimoiy, elchilik faoliyatini aytmysizmi! Zamonaviy klassik yozuvchining qariyb 20 yil (1989-2008 yillar) davomida chet elda, diplomatik xizmatda bo'lishi uning yangi ijodiy qirralarining yuz ko'rsatishiga va professional diplomat sifatida yetilishiga imkon berdi.

Chingiz Aytmatovning ahamiyati jihatidan yozuvchilik faoliyatidan qolishmaydigan diplomatik xizmatlari kitobxonlar uchun u qadar yaxshi tanish bo'lmaganidan shu haqda qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Chingiz Aytmatovning diplomatic xizmati uning Favqulotda va Muxtor elchi bo'lib tayinlanishidan ancha oldin boshlangan edi. Gap shundaki, Chingiz Aytmatov xalq diplomatiyasida – zamonaviy global muammolar yuzasidan fikrlar almashish harakatida o'zining diplomatic iste'dodini ko'rsata oldi.

XX asrning oxirida – 1986 va 1997 yillarda Chingiz Aytmatovning tashabbusi va boshchiligida ish ko'rgan Issiqko'l forumlari xalq diplomatiyasining

eng muhim yo'nalishi bo'ldi va "sovuq urush munosabatlari"ni tugatishni tezlashtirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Forum ishlarida barcha qit'alardan madaniyat, fan va san'atning mashhur vakillari ishtirok etgan edi.

Chingiz Aytmatov 86 – Issiqko'l forumida "xalq diplomati" sifatida ish ko'rgan bo'lsa 97 – Issiqko'l forumida professional diplomat, Favqulotda va Muxtor elchi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

U 1989-1991 yillarda sobiq SSSRning Lyuksemburgdagi favqulotda va muxtor elchisi, 1992 – 1993 yillarda Rossiya Federatsiyasining Lyuksemburgdagi birinchi elchisi, 1994 yildan o'z mamlakati – mustaqil Qirg'izistonning Belgiyadagi elchisi bo'lib ishladi, o'rindoshlik asosida esa yana to'rt mamlakatda – Belgiya, Niderlandiya qirolliklarida va Lyuksemburg Gersokligida ("Benilyuks"da) va Fransiya Respublikasida elchi vazifasini bajarib turdi.

Shunisi e'tiborga sazovorki, diplomatiya tarixida hech kim ayni vaqtda to'rt davlatning elchisi bo'lib ishlamagan ekan. Bu ham buyuk intellektualning buyuk faoliyatidan nishona edi. Bir elchi eng yaxshi diplomatlar yozuvchilardan chiqadi degan ekan. Rus yozuvchisi A.S.Griboyedov, rus shoiri F.I.Tyutchev diplomatic xizmatda bo'lganlar, buyuk rus shoiri A.S.Pushkin tashqi ishlar vazirligida xizmat qilgan ekan, rus shoiri A.D.Kantemir Londonda, Parijda diplomatiklikning namunalarini ko'rsatgan ekan.

Chingiz Aytmatov iste'dodining ko'p qirraligi, yuksak savodxonligi, eng qiyin masalalarni ham hal qila bilish qobiliyati, barq urib turgan aql-idroki bilan ko'pgina zamonaviy diplomatlardan ustun turadigan elchi edi.

Tabiatan oddiyliги, sof kishilarga xizmat qilish uchun har doim tayyor inson ekanligi Ch.Aytmatovning yozuvchilik faoliyatida jamiyat, davlat va diplomatiya ishlarida ish berdi.

Diplomatiya ishi yozuvchining adabiy ijodiga qo'shimcha turtki bo'ldi, uni yangi g'oyalar, taassurotlar va fikrlar bilan boyitdi, betakror odamlar bilan uchrashish va suhbatlashish, xilma-xil voqealar hamda vaziyatlar guvohi bo'lish yozuvchi o'y-mulohazalari uchun boy oziq berdi. Ch.Aytmatov hamma sohada – adabiy ijodda ham, jamoat, davlat va diplomatiya ishlarida ham o'chmas iz

qoldirgan serqirra shaxs, soʻz ustasi, faylasuf, davlat arbobi va jamoat arbobi, bir soʻz bilan aytganda mutafakkir inson edi.

1.2. Asarning mavzu va g'oyasi.

Biz ishning oldingi qismida Chingiz Aytmatovning hayot va ijod yo'li haqida so'z yurita turib, asarlarida qalamga olingan mavzu va shu mavzu ortida yashiringan g'oyalar naqadar ahamiyatli ekanini e'tirof etdik. Shular qatorida adibning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining ham mavzu va g'oyaviy doirasi kendir.

Xo'sh mavzu nima?

Mavzu badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy – axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materialidir. Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o'laroq voqe bo'ladi. Ya'ni borliqda yashayotgan individ saifatida ijodkorni muayyan muammolar o'ylatadi, tashvishga soladi. Ijodkor uchun o'sha muammoni idrok etish ichki ehtiyojga aylangani sababli ham asarda qo'l uradi. Shu ma'noda badiiy asar – "ehtiyoj farzandi" (A.Oripov) sanaladi. Ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etish uchun keng va qulay imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va tasvirlaydiki, bu badiiy asar mavzusidir.³

Yozuvchini hayajonga solgan va qo'lga qalam olishga majbur etgan hayotiy material "mavzu" deb ataladi. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining mavzusi shimolda yashovchi nivxlarning bir necha avlodi taqdiri hisoblanadi. Mavzu odatda yozuvchi yoritmoqchi bo'lgan ijtimoiy va axloqiy muammo bilan birga tug'iladi. Shuning uchun ham "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining ilk ekspozitsion tasvirida muallif asar mavzusini tilga olganda uning qaysi ruhda, qanday g'oyaviy nuqtayi nazardan yoritilishini, ya'ni muammoni ham bab-baravar nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, mavzu va muammo tanlashdayoq Ch.Aytmatov ijodining pafosi aniq seziladi.

Yozuvchi biror mavzu tanlar ekan, uni yoritishining hamma qirralarini boshdanoq to'la tasavvur etolmaydi, balki mavzuning umumiy chegaralarinigina ko'radi. Mavzu hali asarning butun mazmuni emas, balki shu mazmunni aniqlashga va badiiy ifoda etishga chaqiruvchi bir ishoradir. Mavzu muallifning tajribasida tug'iladi, hayot uni yozuvchining qulog'iga quyadi, ammo uning taassurotlar

³ Куронов Д. Ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т. Академнашр. 2010, 157 – бет

xazinasida shaklanmagan holda uya solib yotadi va obrazlarni ifoda etishni talab etib, yozuvchida uni shakllantirish uchun intilish tug'diradi. Demak, mavzu va yozuvchi ongi va qalbida badiiy shakllantirishni talab qilib yotuvchi hayotiy material va ijtimoiy-axloqiy masaladir.

Bir mavzu turli yozuvchilar hayotiy tajribasining xilma-xilligiga va har bir yozuvchi bu mavzuning qaysi bir qirrasiga e'tibor berishiga qarab turlicha yoritilishi mumkin. Ch.Aytmatov "Sohil yoqalab chopayotgan olapar", E.Xemenguey "Chol va dengiz", V.Gyugo "Dengiz zahmatkashlari" asarlarida tabiat, uning qudratli kuchi oldida inson ojizligi, tabiatning bir bo'lagi hisoblangan dengiz mahobati materialiga murojaat etadilar, ya'ni ucala yozuvchi ijodida mavzu jihatidan yaqinlik bor, ammo obrazlar va mazmun tizimiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Ch.Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasi mavzusi haqidagi so'zlarni E.Xemenguey "Chol va dengiz" asari haqida ham aytish mumkin, ammo ma'lumki, ular mazmunan boshqa-boshqa asarlardir. Misol uchun birgina asarning bosh qahramonlari masalasini olaylik. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar"da Kirisk, O'rxon, Emrayin, Milxun kabi qahramonlar oilasi, "Chol va dengiz"da esa Santyago singari yolg'iz yashab, dengizdan hayot mazmunini topgan baliqchi chol taqdiri tasvir markazida turadi.

Hatto, bir yozuvchining o'zi bir hayotiy materialga qayta-qayta murojaat etganda ham mavzu jihatdan ham bir-biriga yaqin, ammo mazmun tomonidan bir-biriga o'xshamaydigan asarlar yaratadi. Zero, bir mavzu har xil yozuvchilar ijodidagina emas, bir yozuvchi ijodida ham xilma-xil qirrasi bilan turlicha badiiy ifoda topishi mumkin. Shu ma'noda, Ch.Aytmatovning ijodida yagona "bosh mavzu" borligi, har bir asarda shu "bosh mavzu"ning turlicha qirralari aks ettirilishi haqida gapirish mumkin.

Ch.Aytmatov ijodining bosh mavzusi tabiat; xalqlar birligi va inson erki, e'tiqodi mavzularidir.

Shunga ko'ra, "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining mavzusi ham tabiatdan uzilmay yashash va kelajakka ishonch tuyg'ulari manzarasi hisoblanadi.

Bir yozuvchi ijodida mavzu birligining mavjudligi uning bir mavzu bilan cheklanib qolganini ko'rsatmaydi. Ch.Aytmatov asarlariga xila-xil hayotiy material – xalqning o'tmishdagi hayoti (“Chingizxonning oq buluti”), yangi davrdagi salbiy hodisalar (“Qiyomat”, “Asrga tatigulik kun”) va shu davr voqealari (“Tog’lar qulayotgan zamon”) tasvir materialini bo’lib kiradi. Zotan, yozuvchining vazifasi o’z zamoni uchun muhim, dolzarb mavzularda badiiy mukammal asarlar yaratishdir.

Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergan bahosi asrning g’oyasi deb ataladi. Yuqorida qayd etilganidek, “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasining g’oyalaridan biri – tabiatdan uzilay yashash, kelajakka ishonch, avlodlar orasidagi munosabat manzarasini ko’rsatishdir.

Agar biz “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasining g’oyalaridan biri haqida shu aytilganlar bilan cheklansak, xato qilgan bo’lamiz. Chunki, shimolda yashovchi Nivx qabilasidagilarning bir qayiqda ummonda dahshatli zulmat qo’ynida qolib, hayot-mamot olishuvini olib borganini asar haqidagi barcha tahlillardan kuzatishimiz mumkin. Avlodlar orasidagi munosabat, nasl davomiyligi tezisi “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasi mazmunining mantiqiy tafakkur tiliga ko’chirilishidir; bu holda esa badiiy asarning g’oyasi oddiy g’oyaga aylanadi. Yuqorida biz nivx qabilasidagi to’rtovlonning ummonning dahshatli zulmati ostida qolib, hayot-mamoy kurashi olib borganini naslni davom ettirish, yashashga umid tarzida talqin etdikki, bu ham asar g’oyalaridan birini oddiy badiiy g’oyaga aylantirishning yaqqol misolidir. Ammo shuni unutmash kerakki, badiiy asar g’oyasi oddiy g’oyalardan tamoman farq qiladi.

Badiiy asarda g’oya tasvir etilgan kishilarning ruhiyati, taqdiri, voqealar va narsalarning mohiyati ichiga shunchalar singib ketadiki, bu g’oyaga muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham, o’zimiz o’sha muallif chiqargan xulosaga kelamiz. “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasining ilk ekspozitsion tasvirida Luvr o’rdak haqidagi rivoyatdanoq asarning asosiy g’oyalaridan biriga ishora qilinganini payqab qolamiz.

Badiiy asardagi g’oya san’at asarining mazmuniga asos bo’lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir. Oddiy g’oyalardan farqli o’laroq

adabiy asardagi g'oya badiiy g'oya deb ataladi. Badiiy g'oya obrazli fikrdir. U faqat obyektiv tasvir etilgan hayot mnazarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi. Biz "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasida shimol odamlarining keng va haqqoniy hayot manzarasini, ummonning ulkan salobati, mahobatini ko'ramiz: O'rxon bobo, Emrayin ota, Milxun amaki, Kiriskbola va boshqa qabilalarning kishilari, shimol tabiati, go'zal sohil tasviri ko'z oldimizdan o'tadi. Biz faqat shu hayot manzarasini yozuvchi bilan birga bevosita mushohada etish natijasidagina ajdodlarning avlodlarga cheksiz e'tibori, kelajakka bo'lgan yuksak ishonchi haqidagi haqiqatga yetamiz, qissaning bosh g'oyasi naslning davomiyligi, kelajak bardavomligiga da'vat ekanini fahmlaymiz. Hayotiyli va obrazlilik badiiy asar g'oyasining juda zaruriy, muqarrar xususiyatidir.

Badiiy g'oyaning yana bir xususiyati uning umumlashtiruvchiligidir. Badiiy g'oya hayotdagi hamma hodisa va kishilarni ko'rsatish yo'li bilan emas, balki bu hodisa kishilarning eng muhim xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalanadi. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining yetakchi qahramonlari asar markazida turib, asar mohiyatini yorqin ifoda etuvchi kishilardir. Xarakterlilik, ya'ni biror hodisaning mohiyatini to'la ifoda eta bera olish xususiyati har bir badiiy asarning mazmunini g'oyaga aylantiruvchi kuchli quroldir. Qissadagi har bir detalda (mahobatli sohil "olapari", ulkan dengiz, personajlarning tipik xususiyatlarida, umuman tasvir obyektining turli elementlarida) mifologik tasvir yo'g'rilgani va shu orqali nasl davomi, kelajak ishonchi asarning xarakterli xususiyatlaridir.

Badiiy g'oya – muallifning tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifoda etuvchi g'oyadir. Bunday g'oya yozuvchining hislarini ifoda etgani va shu hislarni o'quvchiga ahamiyatli qilgani uchun emotsional (ta'sirtchan) kuchga ega bo'ladi. Darhaqiqat, qissa muallifi asarida tasvirlangan har bir kishiga nisbatan qanday munosabatda bo'lsa, o'quvchilarda ham ana shunday munosabat tug'dira oladi.

Shunday qilib, badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqariladigan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional yakunidir. Bu yakun adabiy asar "tana"sining har bir hujayrasiga singib ketgan bo'ladi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat bu

aarning butun obrazli mazmuni orqaligina anglash mumkin. Zero, asarning hayotiy mazmunini kengaytirishga yozuvchilar ongli ravishda intiladilar. Chunki hayotning butun manzarasini hamma zaruriy tafsilotlar orqali tasvirlash asardagi g'oyaviy niyatni badiiy g'oyaga aylantirishga, demak, asarni ishonarli va ta'sirchan qilishga imkon beradi.

Shunga ko'ra, "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasining mavzusi va shu mavzuga singdirilgan ulkan badiiy g'oyasi hayot haqiqiatini o'zida mujassam etadi. Bu mujassamlik esa shakl va mazmun mutanosibligida yuzaga kelganini e'tirof etish joiz. Navbatda, asaring shakily va mazmuniy xususiyatlariga to'xtalamiz.

1.3. Asarda shakl va mazmun mutanosibligi.

Tabiat va jamiyatda hamma narsa ikki tomonga ega: predmetning bir tomoni mazmundan iborat bo'lsa, ikkinchi tomoni shakldir. Har bir mazmun o'ziga xos shaklda yashaydi. "Daraxt" deganimizda nabotot dunyosining yashnab, o'sib turgan bir "vakili"ning tupi, shox-butoqlari va barglari ko'a oldimizga keladi. "Daraxt" degan mazmun faqat mana shu shaklda – tup, shox – butoq va barglarning jami shaklida yashaydi.

Ammo tup, shox-butoq va barq yashnab, o'sib ya'ni yashab turgan daraxtning faqat shakli emas, uning mohiyati hamdir. Tupsiz, shox-butoqsiz va bargsiz daraxt nabotot olamining jonli vakili, ya'ni mazmuni tariqasida yashay olmaydi. Shunga ko'ra, dunyodagi hamma narsaning tashqi qiyofasi bilan uning ichki hayoti, mazmuni orasida uzviy aloqa bor. Shakl mazmunning tashqi qiyofasi tarzida ko'zga ko'rinadi, shu bilan birga o'zi o'sha mazmunning ajralmas bir qismidir. Mazmun ham bizning ko'z oldimizda aniq bir shaklsiz namoyon bo'lolmaydi.

Tabiat va ajmiyatda shakl predmatning yashash usuli, mazmunning ichki uyushmasidir, u shunday narsaki, mazmunning unsurlarini bir-biriga bog'laydi va uningsiz mazmunning yashashi mumkin emas. Shakl mohiyatlidir, mohiyat shakldandir.

Bu umumfalsafiy qoida badiiy ijodga ham taalluqli. Biz adabiy asarning mazmunini, mohiyatini uning shakli orqaligina fahmlaymiz. Shakl mazmunning muhim xususiyatidir: badiiy asarda hayot obrazlarda, obrazli tafakkur orqali o'z aksini topadi.

Obrazlilik, badiiylik adabiyotda hayotni bilish va aks ettirishning o'ziga xos usuli, vositasi ya'ni shaklidir. Obrazlilik, badiiylik badiiy asarda xarakterlar tasviri orqali ro'yobga chiqadi. Badiiy adabiyot xarakterlar yaratish san'atidir. Xarakterlar esa ma'lum bir janrda yozilgan badiiy asarda til, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj orqali yaratiladi. Shunday qilib badiiy asarda bosh mazmun muallif ifoda etmoqchi va o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan hayotiy hodisa yoki g'oyadit. Adabiy asarning janri, tili, xarakterlar, sujet, konflikt, kompozitsiya va peyzaj kabilar esa shu g'oyaga nisbatan shakl rolini o'ynaydilar. Badiiy asar yaratish shu hayotiy

hodisa yoki g'oyani yorqin ifoda eta oladigan va uning o'quvchi zehnda yengillik bilan tug'ilishiga sabab bo'la oladigan shaklni topa olish demakdir. Ifoda etilmoqchi bo'lgan g'oya adabiy asarning mazmunidir, hamma ifoda vositalari shakldir.

Chingiz Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasida ham badiiy shakl va mazmunning to'la uyg'unligini kuzatish mumkin. Asarning mavzusi va g'oyasi, janriy xususiyatlarining hech bir kamchiliksiz namoyon bo'lishi, uning ohangdorligini ta'minlagan.

Asar g'oyasi ramziylik asosida qurilgan imoratdir. Undagi har bir element hayotning aniq, inkor etib bo'lmas, falsafiy mohiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Mifologik doston deya ta'rif beriladigan ushbu qissada muallifning o'ziga xos "eni" boshqa asarlari qatorida bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Zero, asar boshlanishidanoq shaklning mamunga, mazmunning shaklga uyqashib, jipslashganini, ayniqsa yozuvchining rivoyat, afsonalar vositasida kitobxonni g'oya ortidan ergashtira olishini faqat Ch.Aytmatovga xos yo'l deb e'tirof etish joiz.

Tun va kun almashinuvi, bolaning ov olidi hayajoni, Luvr o'rdak qismati, bobo-ota-bola zanjiri va boshqa ramziy timsollar orqali mazmunning shaklga bog'langanini, o'z navbatida shaklning o'zidayoq mazmun qirralari ko'zga tashlanishini ilg'ash qiyin emas.

Asar mutolaa qilar ekansiz, ilk sahifalaridanoq vujudingizni o'ziga xos his, qandaydir hayajon egallaydi. Beixtiyor o'tmish-bugun-kelajak haqida xayol sura boshlaysiz.

Asarning bu xususiyati uning o'ziga xosligining eng kuchli tomonini tashkil etadi. O'zi ifoda etgan fikr va hislar bilan o'quvchini hayajonga soladigan asarnigina haqiqiy badiiy asar deb hisoblash mumkin. Chingiz Aytmatov juda to'g'ri qayd etganidek, "Agar asar o'quvchini hayajonga sololmasa, uning estetik dunyosini boyitolmasa, uning yaxshilik va yomonlikka munosabatini o'tkirlashtira olmasa, unda nimalar aytilmasin, fanday o'ta foydali va o'ta muhim fikrlar izhor etilmasin, qanday mavzu va muammolar qo'yilmasin, u haqiqiy san'at emas. Butun jahon tortishish qonuni mensimaslik mumkin bo'lmagani kabi, san'atning bu qonunini

ham nazar-pisand etmaslik mumkin emas. Mazmun va shakl o'zaro birlikda san'at asarining mohiyatini tashkil etuvchi ikki kategoriyadir".⁴

Shakl badiiy asar mazmunining "libosi"dir. Uning mazmunini tushunish shu "libos" bilan tanishuvdan boshlanadi. Adabiy asarning shakli undagi mazmunning "yashash usuli"dir. Mazmun shaklsiz yashashi mumkin emas.

Shakl va mazmun haqidagi ta'limotning badiiy adabiyot uchun ahamiyati juda katta va ko'p qirralidir. Bu ta'limotdan, qisman badiiy adabiyot asarining shakl jihatdan mukammal bo'lishi zarurligi kelib chiqadi. Yozuvchi kelinchakni haqiqiy kelinchak "libosi"da tasvirlab berolmasa, o'z maqsadiga erisha olmaydi, ya'ni badiiy asar yarata olmaydi.

Mazmun va shakl munosabatlariga taalluqli juda muhim bir qonuniyatni alohida qayd etish zarur. Bu badiiy asarda mazmunning shaklga va shaklning mazmunga o'tishi, ya'ni mazmunning shakl roliga va shaklning mazmun roliga namoyon bo'lishi qonuniyatidir.

Badiiy adabiyot insonshunoslik ekan, adabiy asarning bosh vazifasi xarakter yaratishdir. Ammo insonshunoalik, xarakterlar tasviri adabiyotning o'z maqsadi emas, balki hayotni tasvirlash, yana ham aniqrog'i, muallifning jamiyat uchun muhim bo'lgan g'oyalarni, inson va jamiyat taqdiriga munosabatini ifoda etish qurolidir. Shunday qilib, adabiy asarda tasvirlangan, shu asarda tasvir etilgan hayotiy mazmunga nisbatan shakl hodisasidir, asosan shu xarakterlar orqali biz asar mazmuni bilan tanishamiz. Shu bilan birga bu xarakterlar asarda tasvir etilgan turli voqealar, kechinmalar, taqdirlar, bevosita yoki bevosita izhor etilgan g'oyalar orqaligina bizning ko'z oldimizda jonli kishilar sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, xarakterlar adabiy asarda mazmunning shakli bo'lish bilan birga o'sha mazmun va shaklning qotishgan quyilmasidir; asar mazmuni xarakterlar yordamida ayon bo'lgani kabi xarakterlar mazmun orqali ayon bo'ladi. Xarakterlar adabiy asarda mazmun bilan shakl birligining eng yaqqol dalillaridan biridir.

"Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasida O'rxon bobo va Kirisk bolani xarakter darajasidagi obrazlar deyish mumkin. Chunki, asar davomida shu ikki

⁴ Sulton I. Adabiyot nazariyasi – T.: O'qituvchi, 2005, 147 – bet.

qahramon deyarli voqealar markazida turib, mazmunning yuzaga chiqishi uchun xizmat qiladi. Katta avlod vakilining yosh avlod uchun jon berishi, o'sha yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyaning asosiy belgilaridan biridir.

Bu yerda xarakterlar mazmunning shakli sifatida ta'riflanadi. Endi xarakterlarning adabiy asar tiliga nisbatan o'rnini aniqlab ko'rsak. Ma'lum bo'ladiki, adabiy asarda xarakterlar mazmunning tashqi qiyofasi bo'lish bilan birga, asar (to'g'rirog'I, badiiy ifoda)ning shakli ekanligidan uning mazmuniga aylanadi, chunki xarakterlar (ularning xulqi, o'zlari va harakatlari) adabiyot asarida faqat til orqali tasvirlanishi mumkin. Demak, xarakterlar endi mazmun rolini, til esa xarakterlarga nisbatan shakl rolini o'ynaydi.

Shunday fikrni badiiy asarning har bir komponenti haqida ham aytish mumkin. Masalan, sujet badiiy asarda hayotni aks ettirish vositasi, ya'ni shaklidir. Ammo, sujet ham faqat til orqali ifodalanadi. Demak, bu yerda ham til shakl sifatida maydonga keladi. Ayni chog'da, til o'sha sujetning mohiyatini ifoda eta olishi zarur. Shunday qilib, adabiy asar uchun xarakterli hodisa mazmunning shaklga aylanishi va shaklning mazmun bilan sug'orilishidir.

Ayon bo'lmoqdaki, asar tahlilida, shakl va mazmun birligida tilning ham alohida o'rne bor. Garchi, "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasi (qirg'iz) rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lsa-da, tarjimon mahorati orqali yozuvchi "meni" saqlanib, asarning shakl va mazmun xususiyatlari hech bir g'alizliklarsiz saqlanib qolingan.

Xullas, bu asarning mavzusi, unda ko'tarilgan g'oyaga singdirilgan shakl va mazmun mutanosibligi, uning muvaffaqiyati belgisidir. Ch.Aytmatovning hech bir yozuvchi, ijodkorda uchramaydigan obrazlar kashfiyoti, ramziy timsollarga murojaati, tabiatning o'ziga xos tasvir chizgilari va eng asosiysi, mifologik tarzda yoritilgan mulohaza, qarashlari asarda tom ma'noda uyg'unlik kasb etib, bir butunlikni yuzaga keltira olgan.

Ishning keyingi boblarida shular borasida batafsil fikr yuritamiz.

II bob. Asarda obrazlar olami.

2.1. Qissadagi qahramonlarga tavsif.

Badiiy adabiyotda aks ettirilgan inson obrazi adabiy asar qahramoni deb yuritildi. Yozuvchi maqsadi, usul va ramziylikdan kelib chiqib, hayvonot va o'simlik dunyosi namunalari, umuman, voqelik va xayolotdagi moddiy va nomoddiy tushuncha ham shartli ravishda qahramon sifatida tasvirlanishi mumkin. Biroq, V.Belinskiy ta'kid etganidek, san'atdagi eng oily predmet – inson hisoblanarkan, demak, “Obraz” atamasi insonga (badiiy asardagi insonga) nisbatan qo'llanishi ma'quldir.

Obraz badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da, aniq manzarasidir.⁵

Shunga ko'ra, “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasidagi qahramonlar ham o'ziga umumlashmalik hosil qiladi. Ma'lumki, kichik hajmli asarlarda (hikoya va aksariyat qissalarda) odatda, bitta qahramon harakatlanadi. Ammo, bunga qat'iy qoida deb qaramaslik kerak, undan chekinilgan holatlar ham ko'p uchraydi. Masalan, tasvirlanayotgan hayotiy holatning o'zi yetakchi estetik ahamiyat kasb etgan shu qissaning o'zidayoq O'rxon bobo ham, Emrayin, Milxun, Kirisk bola ham birdek qahramon sanalishlari mumkin. Zero, badiiy asar mazmunida asosiy o'rin tutuvchi personajlar (epizotik personajlardan farqli o'laroq) qahramon deb ataladi.

Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o'qiganimizda unda aks ettirilgan voqelik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari qiyofasida muhrlanib qoladi. “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasini mutolaa qilish jarayonida O'rxon bobo, Emrayin, Milxun, Kirisk, uning do'sti Muzluk, Kiriskning onasining mahorat bilan chizilgan timsollari, keng sohil manzaralari, ulkan ummon tabiati kishi xotirasida mahkam o'rnashib qoladi.

Ushbu parchga e'tibor qarataylik:

“Qayiq qayrug'ida yuzi qo'ng'ir tus olgan, ozg'in, kekirdagi bo'rtib chiqqan, manglayi va ayniqsa bo'yinlarini taram-taram ajin bosgan, qo'llari ham yirik,

⁵ Умуров Х. Адабиёт назарияси. Т.: Шарқ, 2002, 30 – бет.

suyakdor panja bo'g'inlari yong'oqday shishib chiqqan kekxa ovchi tamaki trupkasini so'zrgancha, rulni boshqarib borardi. Sochlariga oq oralagan, buutnlay oq desa ham bo'ladi. Qoraygan yuzida oqish qoshlari ko'zga aniq tashlanardi. Cholning yoshlanib, qizargan ko'zlari odatdagiday hamisha qisilgan – umr bo'yi quyosh nuri tushib ko'zni qamashtiruvchi suv yuziga qarayverib o'rganib qolgan, u ko'rfazda qayiqni go'yo ko'r-ko'rona haydayotganga o'xshardi".⁶

Mana shu tasvirning o'ziyoq qahramon cholning hayoti va mazmuni dengiz, tabiat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

O'rxon bobo obrazida kitobxon haqiqiy jasorat va matonat, zakovat timsolini ko'radi. Asarning boshidan oxirigacha chol personaji boshqa obrazlarni, qahramonlarni boshqarib turadi, go'yo. Uning ramziy timsollar bilan qorishib ketgan ruhiy holati ham ma'naviy olami yuksakligidan dalolat beradi. Ayniqsa, Ona Baliq, qayiq bilan xayoliy suhbatlari qalbida buyuk ishinch, yupanch borligini namoyon etadi:

“Chol... xayolan qayiq bilan gaplashardi. “Seni yaxshi ko'raman va senga ishonaman, inim derdi u qayiqqa. – Sen dengizni tilini bilasan, to'lqinlar fe'lini bilasan! Kuchli ekanliging ham shunda-da. Sen munosib qayiqsan, yasagan qayiqclarim ichida eng dilbarisan. Sen ulkan qayiqsan – ikkita laxtak, yana bir nercha sig'adi senga. Sen bizga rizq-ro'z berasan. Shuning uchun seni hurmat qilaman. O'ljalarimizni arang ko'tarib kelayotganingni, hatto yoking og'irligidan suvga botay-botay deb qirg'oqqa qaytayotganingni ko'rib hammamiz seni qanchalar sevamiz. Sunda seni kutib olish uchun sohilga hamma yugurib chiqadi, mening qadrdonim, qayig'im, inim.

Agar men o'lib ketsam ham, sen uzoq yillar suzaver. Agar men o'lib ketsam, ularga ham menga xizmat qilgandek xizmat qilaver. Ha, inim, tumshug'ingda boshini likkillatib, joni ichiga sig'may o'tirgan anavi bola ham o'sib, voyaga yetguncha kutgin, sen bilan uzoq yaqinlarga ovga boradigan bo'lgunicha kutgin. Bolaning g'ayratiga qara, qarshisda suv emas, yor bo'lganda, hozir chopqillab borib, qanday ov qilishni ko'rsatardim deb, turibdi ko'zlari. Bugun bolanng birinchi marta

⁶ Айтматов Ч. Сохил ёкалаб чопаётган олапар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984, 7 – бет. (Кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинади)

biz bilan dengizga chiqishi. Axir bir kuch chiqishi kerak edi ham. O'rgansin. Biz ketamiz, u qoladi. Uzoq yashaydi. Otasi Emrayinga o'xshasa durust odam bo'ladi. Qandaydir safsataboz bo'lmaydi. Emrayin hozirgi ovchilar ichida eng zo'ri, zabardast yigit, ishiga puxta. Bir vaqtlar men ham shunday zabardast edim. Ayni kuchga to'lgan paytim edi. Ayollar meni yaxshi ko'rishardi, men bo'lsam umr bo'yi shunday bo'ladi deb, o'ylapman. Lekin hamisha shunday bo'lavermasligini kech tushundim. Yoshlar esa buni tushunishni istamaydi. Manavi Emrayin va Milxun ham qarilikni xayoliga keltirmasa kerak. Hay, mayli. Hali vaqt bor ularga. Eshkak eshishga kelganda ular boplashadi, zalvorli, bo'ladigan chidamli sheriklar. Qayiq o'z-o'zidan bermalol suzib ketayotganday tuyuladi. Aslida unday emas. Dengizda axir qo'l bilan yuriladi. Eh-he, hali oldinda qanchalar eshkak eshishga to'g'ri keladi. Xo'sh, bugun qosh qorayguncha, uchinchi siynaga yetin boorish mumkin. Ertaga erta tongdan to qosh qorayguncha suzib orqaga qaytamiz. Goh unisiga, goh bunisiga dam berish uchun navbat almashib eshkak eshishdi. Ammo, lekin eshkaklar bilan butun dengizni chayqaltirib chiqish hazilakam ish emas. O'lja bilan qaytsak, bayram qilamiz.

Ehityapsanmi, so'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Sen bizni uch siyna oroliga olib borasan, katta ov o'sha yerda bo'ladi. Hozir shu yoqqa qarab boryapmiz. O'sha yerdagi sohilda, qumloqlarda nerponi ko'ramiz. Hademay, ular bobolashadi, orollarda to'da-to'da negra yig'iladi. So'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Tushunasan, albatta. Sen bilan gaplasha boshlaganimda hali dengizni ko'rmaganding, ona qornida yotganday, o'rmondagi buyuk terakning qornida yotgan eding. Men seni daraxtning qornidan chiqardim, mana endi dengizda birga suzib yuribmiz.

Dunyodan ko'z yumib ketganimda ham meni unutmagan, qadrdonim. Dengizlarda charx urib suziyotganingda mani ham esla..." (12-13 – betlar)

Darhaqiqat, ushbu parchada asarning butun mazmuni aks etadi. Eng e'tiborlisi, qissaning boshqa qahramonlariga munosabat shu iqtibosda ayon bo'ladi. Qayiqqa murojaat orqali cholning butun o'y-xayollari oshkor etiladi. Ko'ngildagi umidvorlik, bola qiyofasida kelajakni tasavvur etish g'oyat ta'sirchan ifoda etilgan.

Emrayin va Milxun obrazlari orqali yoshlik shijoatini tuyish orqali choldagi g'ayrat olovi cheksiz ekanini ham his etish qiyin emas.

Zero, insonni tasvirlash, avvalo, uning ichki dunyosini, kechinmalarini tasvirlash demakdir. Odam odamlar orasida, ya'ni jamiyatda yashaydi. Insonning kechinmalari jamiyatga oid turli-tuman masalalar bilan chambarchas aloqador bo'ladi. Shunday ekan, badiiy adabiyot inson kechinmalarini barcha murakkabliklari bilan aks ettirishi kerak. Bu esa ijodkordan yuksak iste'dod va badiiy mahorat talab qiladi. U hayot va odamlarni yaxshi bilishi, insonning holatini, imkoni boricha, haqqoniy, o'z qalbi bilan tuyganday aks ettirishi kerak. Shundagina yaratgan asarlari odamlar qalbiga kuchli ta'sir etib, zavq-shavq uyg'otishi, kishilarni ezgulikka, e'tiqod va go'zallikka muhabbat ruhida tarbiyalashi mumkin. Shaksizki, shunday.

“...Ana hozir otasi (Emrayin) qayiqning tumshuq tomonida o'tirib eshkak ehsyapti. Soqoli qop-qora, tishlari oppoq. Jussador, keng yag'rinli, xotirjam, sabr-toqatli. Boshqalarga o'xshab otasi biror marta unga baqirib, do'q-po'pisa qilganligini yoki aksincha, avaylab, ardoqlab, yupatganini eslayolmaydi. Chaqnab turgan ko'zlari haqiqatdan ham tip-tiniq, qo'yning ko'ziga o'xshardi.

Keyingi bir juft eshkak Milxunning qo'lkida, u Kiriskning amakivachchasi, otasidan ikki yosh kichik Emrayinning ukasiga unchalik o'xshamaydi, negaki, soqoli yo'q. Ammo uchlari osilib tushganmo'ylovi xuddi morjnikidi o'xshardi. O'ziyam xuddi morjga o'xshaydi, gapni do'ndiradi, bahslashishni yaxshi ko'radi, ko'ngligi o'tirmasa, tepalashishdan ham qaytmaydi. Janjallashganda haqini o'tkazmaydi. Bir marta sayyoh savdogar bilan jiqqamusht bo'lib qoliushgan edi, keyin butun urug' aymog'I bilan kechirim so'rab, tovon to'lab yurishdi. Milxunning o'zi pakana bo'yli, miqtidan kelgan bo'lsa ham hech kimga so'z bermaydi, haqiqatdan bo'lsin, deydi. G'irt mast edi o'shanda. Bunaqa ishga suyagi yo'q. Ko'pchilik qatori Emrayin ham uni tinchitmoqchi bo'lib rosa qiynalgan. O'ziniyam ayiqday kuchi borda. Kirisk uni aki-Milxun deydi. Otasi bilan ular juda inoq, ovga doim birga borishadi, hech qachon bir-birini dog'da qoldirmagan, ikkalasi hamuddaburon ovchilar”. (36-37 – betlar)

Biri og'ir, bosiq, kamgap, qiziqqon, o'jar, tezfe'l bo'lgan og'a inilarga xos bo'lgan bu xususiyatlar haqiqiy turk yigiti qiyofasini ko'rsatadi. Dengizda birga eshkak eshganda, ovda, hayotdagi qat'iyat, birdamlik, biroz xudbinlik ularga nisbatan kitobxonda xayrixohlik uyg'otadi. Yozuvchi voqelikni aks ettirar ekan, uni o'zi anglaganicha talqin qiladi. Hayotdagi voqea – hodisalar, odamlar va ularning dunyoqarashi, xarakter-xususiyati, madaniy-ilmiy saviyasi, niyati, orzu-istagi ishlovidan o'tgandan keyingina obraz – timsollar qiyofasida namoyon bo'ladi, badiiy asar shaklini oladi. Qisqasi, yozuvchi ijod jarayonida asaridagi obrazlarini individuallashtiradi, umumlashtiradi.

Guvoh bo'lganimizdek, muallif Emrayin, Milxun obrazlari orqali, o'rxun bobo, Kirisk qahramonlari bilan o'z kuzatish va qarashlari asosida chin iunsonlar obrazlarini umumlashtiradi, o'z navbatida ularni individuallashtirib, tipik jihatlarini badiiy ifoda etadi.

Dengiz po'rtanalari-yu sokin tumanlarida, Olapar sohil sog'inchi, tashnalik, ochlik azobi, ov zavqi, Ona Baliq tarovati fusuni Kiriskning asardagi o'rni orqali va harakatlari bilan yaqqolroq namoyon bo'ladi. Zero, u qissa markazida turib, asardagi boshqa detal, obyektlarni boshqarib turuvchi vosita hisoblanadi.

Asarda Kirisk portreti quyidagi tarzda tasvirlanadi:

“Onasining aytishicha, Kirisk otasiga juda o'xshab ketar ekan. Katta bo'lsa, quyib qo'yganday Emrayinning xuddi o'zginasi bo'ladi-qoladi, deydi. Kiriskning ko'zlariyam otasiniki singari qo'yko'z, tishlariyam otasinikiday mustahkam, oldingi ikkita kurak tishi biroz turtib chiqqandi. Yana onasining aytishicha, katta bo'lsa Kiriskning ham otasinikiday qop-qora va dag'al qalin soqoli bo'lar ekan. Haytavar otasini sersoqol Emrayin deb bekorga aytishmaydi. Kirisk go'daklik chog'larida, anhorda yalang'och cho'milib yurgan kezlarida onasi singlisining biqiniga turtib: “Qara, qara, xuddi otasining o'zi” – derdi. Ikkalasi nimadandir xursand, ichaklari uzilguday qotib-qotib kulishar, quvlik bilan shivirlashardi.

Onasi: “Kirisk katta bo'lsa unga xuddi o'zimga o'xshagani duch kelsa, o'sha kelin sira xafa bo'lmasdi, ko'ngli to'lardi, buni men bilib aytyapman”, derdu u.

“Qiziq, - o’ylardi Kirisk, - kim, nima uchun ko’ngli to’ladi? Kirisk otasiga tortgan bo’lsa, nima uchun unga tushagan xotinning ko’ngli to’ladir”.

Onasining ta’rificha, xuddi otasining o’zi bo’lgan bolakay asar sujet liniyalarining har birida goh faol, goh chetda bo’lsin ko’zga tashlanib turadi. Voqealar rivojiga ko’ra, mazmunan u kelajak timsoli. Ota-bobolari jon bergan ayni paytda u tirik qoldi. Hayotga, yashashga bo’lgan ishonch va umidvorlik ilinjida sokin dengizda vazmin bo’lib, Olapar sohilga qaytdi. Ana shu qaytish jarayonida Mizluk haqida, onasining erkalashlari, singlisi to’g’risida xayol surdi. Go’yo shamol yanglig’ O’rxon bobosi, yulduzday porloq otasi Emrayin, dengiz to’lqinlari kabi suronli amakisi Milxunlar haqida o’ylay boshladi.

Uning o’ylar chulg’angan munojoti qissa so’ngida shunday umumlashtiradi:

“...Shunday kechalardan yana biri o’tdi...

Dengiz uzra O’rxon shamoli shovqin solar, dengizda aki-Miltun to’lqinlari suzib yurar va yoroshib kelayotgan osmoni falakning bir chetida Emrayinning nurli yulduzi charaqlab turardi.

Yana yangi bir kun boshlanmoqda edi...” (75-bet)

Demak, badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta’sir kuchiga ega bo’lgan surati badiiy obraz deyiladi. Zotan, badiiy adabiyot asosida go’zallik haqidagi tasavvur yotadi, Bunday tasavvur insonning odam, hayot va jamoiyat haqidagi orzu armonlarida tug’ilgan. Badiiy asar ana shu orzu-armonlarni aks ettirsagina tarbiyaviy quvvatga ega bo’ladi.

Ishning keyingi qismida asardagi ramziy-majoziy timsolla xususida so’z yuritamiz.

2.2. Ramziy va majoziy timsollar.

Ramz – (simvol) grekcha “symbolan” so’zidan olingan bo’lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a’zolarining bir-brini tanib olishi uchun qo’llanilgan shartli belgini anglatagan. Badiiy adabiyotda keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo’lib, aniq tasavvur etish qiyin bo’lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko’z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Misol uchun, ayyorlikni ko’z bilan ko’rib bo’lmaydi. Lekin tulkining juda ayyor jonivor ekanligi ma’lum va uni ko’rsa bo’ladi. Shu bois badiiy adabiyotda tulki ayyorlik ramzi sifatida qabul etilgan. Burgut, arslon, ohu, bulbul, tuya va boshqa jonivorlarning timsollarini ham ramziy ma’noda qo’llash mumkin.

Deylik, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida Shoxdor ona bug’I ramziy obraz bo’lib, u hech qachon tamomila yo’qotib bo’lmaydigan ezgulik, yaxshilik, oliyjanoblik, mehr-oqibat timsolidir. Ayni vaqtda, Ona bug’uni xalq ramzi ham deyish mumkin. Qissada shuningdek, baliq va oq kema ham o’z o’rinlarida ramziy ma’no tashiydi. Chuninchi, bola uchru baliq erk va qudrat timsoli. Chunki u suvda juda uzoq suza oladi. Yana ko’zini ham yummaydi, nafasi ahm qaytmaydi. Oq kema to’kislik, mehr-oqibat, diydor ramzi. Bolaing nazdida oq kemaga yetib olsa otasini topadi. Badiiy asarlarda ba’zan narsalar o’zlariga to’g’ridan-to’g’ri tegishli bo’lmaydigan ma’noga ega tarzida tasvirlanishi ham mumkin. Ana shunday ko’chma ma’noga ega bo’lgan timsollar ramziy obrazlar hisoblanadi.

Qissa qahramoni hayotda mehr ko’rmagan, uning bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilishi mumkin bo’lgan kishisi yo’q. Shu bois, u hayotda ko’rmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramzlardan topishga urinadi. U bir bola sifatida ota-onasining mehrini qo’msaydi, ularga intiladi. Oq kemada otamni ko’raman, deb o’ylagani sabab uni diydorning, oqibatning ramzi deb qaraydi. Aynan shunday ramziy ma’no ona bug’u obraziga ham yuklangan.

Xuddi shu qissaga o’xshagan asosiy qahramoni bola bo’lgan “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasida ham bir necha ramziy timsollarni uchratish mumkin. Misol uchun, qissadagi qayiq – O’rxun boboning “ini”si. Chol unga go’yo o’z yaqin

kishisiga dardini aytayotganday, sirlashayotganday muomala qiladi. (Biz ishning oldingi boblaridan birida shu suhbatni, murojaatni keltirgan edik.)

Cholning o'y-xayollari quyidagi tarzda aks etib, qayiqning ramziyligiga ishora qiladi:

“O'rxon chol o'chib qolgan trupkasini so'rganicha, qayiqning erkin suzib borayotganidan huzur qilar, ko'nglida muzday suvga to'sh urgancha olg'a borayotgan qayiq – go'yo cholning o'zi bo'lib tuylardi; u o'zini eshkaklarning bir maromdagi harakati bilan, tirgakdan chiqayotgan, g'iychillagan sadoga jo'r bo'lib poyonsiz dengizda suzib ketayotgan qayir o'rnida ko'rardi; go'yo uning o'zi o'tkir tumshug'I bilan qarshida kelayotgan to'lqinlarni yorib, suv zarbalari va zarralaridan yengil chayqalib suzayotganday edi. Qayiq bilan birday harakatlanish sezgisi g'alati xayollarga olib borardi cholni. Uning qayiqdan ko'ngli to'q, hatto, juda manun edi, axir uni o'zi randalaga, o'zi o'yib yasagan; terakni birgalashub yiqishdi, bir odam uni eplolmasdi, to'rt kishiga ham og'irlik qilardi bu ish. Lekin uyog'iga bir o'zi ishladi – xodani uch yuz quritlar yo'ndi. O'sha vaqtdayoq bilgan edi – umrida yasagan qayiqlari ichida eng yaxshisi eng yaxshisi shu bo'ladi. Chol shu haqda o'yladiyu beixtiyor ko'ngli g'ash tortdi, yopiray, shu oxirgisi bo'lmasinda yana bir necha yil yashaydi. Yana bir necha bor dengiz oviga chiqsaydi. Hozircha ko'z nuri, qalb qo'ri borligida yana bir juft qayiq yasaydi”(12 – bet).

Ushbu parchaning mazmunidan ayon bo'lmoqdaki, qayiq hayot dengizida suzuvchi umr timsolidir. Aynan chol bilan bog'liqligi esa yashash muddatini deyarli o'tab bo'lgan kishining avlodlarga xayrixohligi ifodasidir. Bizningcha, yozuvchi shu jihatdan qayiq detalini behuda O'rxon bobo obrazi bilan bog'lamagan. Zero, kelajakning mustahkam bardavomligi asosi tarix, ajdodlar silsilasidan uzilib, vujudga kelmaydi.

“O'rxon bobo qirg'oqdagibelgi – Olapar qoyasidan dengiz tomonga qayiqni to'gori yo'naltirar ekan, ko'nglidan shuro'ylar o'tdi. Dengiz safariga chiqqanlarning hammasi Olapar qoyasining ajoyib xosiyati borligi to'g'risida gapirishadi. Havo ochiq kunlari qayiqlar dengiz qirg'og'idan qancha uzoqlashsa, Olapar ham shunchalik kattayib, go'yo ortga qolibketishni istamay ularning ketidan

kelayotganday bo'ladi. Qancha uzoqdan qarasang ham Olapar sira yo'qolmaydi. Qayiq uzoqlashgandan so'ng ham ancha vaqtgacha ko'rinib turadigan Olapar, suvning qaysidir muyulishidan ko'zdan g'oyib bo'ladi. Demak. Olapar uyga qaytib ketdi, qirg'oq juda uzoq-uzoqlarga qolib ketdi desa bo'ladi..." (13 – bet).

Bu tasvir ham ramziylikka yo'g'rilgan bo'lib, Olapar obrazi go'yo Vatan muhabbati, majoziy zanjirini ifoda etadi.

Umuman bu asar boshdan oxir ramziylik qolipida yaratilgan bo'lib, undagi har bir detal, har bir obraz o'ziga xos majoz, ramzga ega. Zero, asar mohiyatini mazmunini ko'rsatuvchi eng asosiy omil ramz – majoziy timsollar hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ishning keyingi boblarida tabiat tasviri mifologik talqinlarda badiiy asarning kuchi, mazmuni qay darajada ekani borasida fikr yuritamiz.

III bob. Asarning badiiy xususiyatlari.

3.1. Asarda tabiat tasviri.

XX asr adabiyoti o'z g'oyaviy estetik izlanishlarida inson va insoniyatning rivojlanish yo'llari haqidagi axloqiy – falsafiy o'y-fikrlarga moyillikni namoyon etadi. Bu, yozuvchilarni mazkur muammolarni hal etishga yordam beruvchi yangi badiiy izlanishlarga ruhlantirdi. Ko'plab adiblar voqelikni to'laqonli aks ettirishga yordam beruvchi shartli badiiy usullar – rivoyatlar, miflar, obraz-ramzlarga murojaat etishadi.

Bu an'ana jahon adabiyotining yirik namoyondalaridan biri – bizga zamondosh bo'lgan Chingiz Aytmatov ijodida o'z ifodasini topgan. Chunki uning ko'plab asarlarida shartli badiiy usullar keng o'rin olgan. Adib o'z asarlarida nafaqat qadimiy miflardan foydalangan, balki hozirgi zamon to'g'risida ham miflar yaratgan.

Ch.Aytmatov nasrida rivoyat nafaqat uslubning, balki uning stukturaviy ibtidosi sifatida ham keladi. U didaktik rolni bajarishi bilan birgalikda axloqiy-falsafiy problematikaning markazi, bizni voqelikning umuminsoniy muammolariga olib kiruvchi, muallifning badiiy g'oyasini aks ettiruvchi vositadir. Ch.Aytmatovda falsafiy parabola effekti badiiy g'oyani yiriklashtirib, kuchaytirib boradi.

Ch.Aytmatov nasriga xos bo'lgan parabolalik matnning barcha darajalarini – leksika, stilistika, syujet, badiiy-g'oyaviy strukturani qamrab oluvchi butun ramziy plastni o'z ichiga qamrab oladi, biroq ramziylik reallik bilan bevosita chatishib ketadi.

Arxaik miflardan zamonaviy talqinda foydalanish, zamonaviylik metaforasi sifatida mifologik obrazlarni qayta yaratish va mifga badiiy voqelikni ifoda etishning estetik vositasi sifatida murojaat qilish – Ch.Aytmatovning mif poetikasiga olib kirgan yangiligidir. Adibning ijodiyotida mif va rivoyat yonma-yon mavjud bo'ladi (masalan, Ona-bug'u haqidagi mif, Filofiy haqidagi rivoyat va h.k.).

Shuni ta'kidlash lozimki, mifda xususiy hodisa i\umumiy ma'noni ifodalash shakli bo'lib keladiki, bu holat uni rivoyat janri bilan qiyoslashga yordam beradi. Rivoyatda ibratli vaziyatni aks ettirish birinchi o'rinda turadi, badiiy ahamiyat

ikkilamchidir. Mifda esa badiiy obraz uning ramziyligi bilan birgalikda xususiy ahamiyat kasb etadi, lekin qandaydir ikkinchi darajali va qo'shimcha ahamiyatga ega emas.

Ch.Aytmatov asarlaridagi deyarli barcha jonivorlar sinkretik yo'nalishlardagi miflardan olingan, barcha jonli narsalarning ibtidosi (arxetip) sifatida namoyon bo'ladi. "Oq kema"dagi bolaning Shoxdor ona-bug'uga murojaat etishi, "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar"da qariya O'rxonning Baliq-ayolga, "Kunda"dagi urg'ochi bo'ri Akbaraning bo'rilar tangrisi Bo'ri onaga murojaat etishi bejiz emas, Nayman ona esa o'g'lini izlash uchun Akmay urg'ochi tuyani tanlaydi.

Ch.Aytmatov "Oq kema" qissasidagi qadimgi qirg'iz eposi "Manas"ga borib taqaluvchi Shoxdor ona-bug'u haqidagi etnogenik mifdan foydalanadi. U nafaqat muhim g'oyaviy-badiiy vazifani o'taydi, balki yozuvchining axloqiy-falsafiy qarashlarini aniqlashga yordam beradi. Qirg'izlarning Issiqko'lda paydo bo'lishi haqidagi mifda – Shoxdor ona-bug'u totemistik obrazdir. Uning iztiroblarida xalqning azob uqubatlari o'zining ramziy aksini topgan.

Bu obrazning etik ahamiyati shundaki, u mifologik makondan chiqqan holda bizni zamonaviy reallik bilan birlashtiradi, bugungi kun qahramonlarining ichki mazmun mohiyatiga munosabatini oydinlashtiradi. Mo'min boboning nabirasi obrazida biz insonning tabiat bilan, ajdodlar tomonidan qachonlardir uzilib qolgan o'tmish bilan aloqasi ifodasini ko'ramiz. Aynan Mo'min bobo o'z nabirasi ongida ajdodlar, odamlar xotirasiga hurmat hissini uyg'otadi.

Ch.Aytmatov uchun reallikda ajdodlar o'g'itlari nima uchun va qay tarzda inqirozga uchragani muhim, zero, bolaning ertagi – shunchaki mif emas, balki xalqning o'tmishi, buguni va kelajagining metaforik tarixidir.

Yozuvchi tarixiy va etnik mazmundagi badiiy sintezga erishadi, mavjudlik qonunlari asosida yotuvchi umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy ideallarni chuqur idrok etadi. Jumladan, yozuvchi tushunchasiga ko'ra mutlaq Ezgulik, Muhabbatga – insonga va tabiatga asoslangan bu qonunlarga xizmat qilish bo'lsa, mutlaq Yovuzlik – bu qonunlarning buzilishida namoyon bo'ladi.

“Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasi – mifologik dostonidir. Bosh qahramon xuddi “Oq kema” qissasidagi bola kabi bo’lib, yozuvhchi uchun faqat uning toza qalbigina adolatning oiy mezoni sifatida xizmat qiladi. Qissa sujetida ikki mif – etnogenik va kosmogonik mif mavjud. Yozuvhcini doimo insoniyat kelajagi va inson naslining davom etishi hayajonlantiradi. Asarning tili ritmik, ya’ni ohangdor nasr sifatida qabul qilinadi: “Dengiz to’lqinlari zulmat qo’ynida guvillab. O’kirib, shiddat bilan qoyalrga kelib urilib, parchalanib ketadi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib, tosh – metin bo’lib ketgan Qirg’oq xo’rsininb, uf tortadi”.(5-6 – bet) Garchi uni keng manoda nasrdagi qo’shiq deb aytib bo’lmasa ham, asar oxirida u Kiriskning Olapar haqidagi epik qo’shig’I darajasiga o’sib chiqadi.

Ch.Aytmatov bu qissasida Taqdir – Osmon mavzusi ilk bor insoniyat nasli, hayoti davomining shart-sharoitlari sifatida paydo bo’ladi (ichki qonunlardan tashqari), u keyinchalik yozuvchi falsafasining umuminsoniy yo’nalishida yetakchi o’rin egallaydi. Hajman uncha katta bo’lmagan qissa butun boshli tarixiy davrlarni o’z ichiga qamrab oladi, stillarni sintez qiladi, biroq asosiysi – bir qator axloqiy – falsafiy muammolar: ezgulik, yovuzlik, ozodlik, g’urur va hokazolarni o’z ichiga oladi. Bunda mif ulkan rol o’ynaydiki, u asarning g’oyaviy markazi sifatida rivoyatga xos didaktiklikni o’zida aks ettiradi, stilistik o’ziga xoslikni ta’minlaydi. Ch.Aytmatov o’z ijodiyotining asosiy motivlarini rivojlantira borib, borliqning o’zgacha, umuminsoniy konsepsiyasiga keladi, uning asosiy kategoriyalari “cheksizlik”, “umumiylilik” singari tushunchalarni o’z ichiga oladi. Bu momentlar “Chingizxonning oq buluti” qissasida (“Asrga tatigulik kun” romaniga tegishliu qissa), “Kassandra tamg’asi” roman-ogohlantirishida, “Ruhning ulug’vorligi odasi” dialogika, “Tog’lar qulaganda” (“Mangu qayliq”) romanida (adib so’nggi asari) o’zining yorqin ifodasini topgan. “Chingizxonning oq buluti” qissasi “Asrga tatigulik kun” romanining asosiy g’oyasini davom ettiradi, ayni paytda yozuvchi “Kassandra tamg’asi” romanida rivojlantirgan umuminsoniy g’oyani tushunish sari yetaklaydi. Qissa nafaqat janr tomonidan qiziqarli. Ch.QAytmatov ta’kidlaganidek, “bunday janr aslida bo’lmaydi”.

“Chingizxonning oq buluti” qissasida ramziylik muallifning ilk prozasidan biroz o’zgacha berilgan, bunda ramz sifatida muayyan obraz emas, balki bir qator obrazlar Hokimyat, Taqdir, Hayot kabi etnik ahamiyatli tushunchalarni anglatuvchi qandaydir ramzlarni yaratadi. Jumladan, bayroq va ajdarho kabi obrazlar hokimyat ramzida jamlanadi; qora dumli va oq yolli ot, oq bulut, keksa bashoratgo’y – Taqdir ramzi; hokimyatga qarama-qarshi o’laroq, biroq Taqdir qonuni bo’yicha tug’ilgan bolakay onaning oq ko’ksi va cho’ri siynasiga mo’jizaviy tarzda kelgan sut – Hayot ramzi sifatida berilgan.

Biz bulutni ham ramz, ham belgi deb bejiz atamadik, ayni paytda uni onraz dedik. Bu tushunchalarni o’zaro almashtirish mumkin. Bu o’rinda biz S.Averinsevning “simvol o’zining belgiligi jihatida bo’yicha olingan obraz, u ... mifning butun organikligi va obrazning cheksiz ko’p ma’nodlilikini kasb etgan belgidir” degan fikriga qo’shilamiz.

Oq bulut odamlar hayotida xuddi “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qahramonlari hayotidagi yulduzlar kabi najotkor rolini bajaruvchi belgidir. “Oq bulut” nafaqat, insonning najotkori, balki, hayot Qonuni buzilishi beriladigan Qasos vazifasini ham bajaradi. Bulut alohida odam uchun shaxsiy belgining ramzi emas, u ilohiy osmon ramzidir.

Qissada bulut qahramonni tark etib, davr (Chingizxon davri)ning yakun topishini ramziylashtiradi, bu hol “Kassandra tamg’asi” romanida ham namoyon bo’ladi; asarda kitlar dunyo disgarmoniyasiga qarshi bosh ko’tarib o’zlarini halok qilishadi.

Ch.Aytmatov ijodida shunday mavzular borki, ular bir asardan boshqasiga o’tib yuradi. Bu mavzulardan biri – insoniyat naslining davometishi va yerdagi hayot mavzusi bo’lib, “Kassandra tamg’asi” romanida ustuvor o’rin tutadi.

Ch.Aytmatov ijodida dunyoning to’g’ri va oqilona qurilganligi haqidagi tasavvurlarni shakllantiruvchi axloqiy-falsafiy, estetik muammolarning yaxlit tizimi yotadi. Uni hal etish uchun yozuvchi boshqa usullar singari shartli badiiy usullarga murojaat etadi. Yozuvchi bir muammoga javob berishda turli xususiyat va holatlarini tahlil qiladi, biroq bu tayyor qaror emas, faqat javob – “ogohlantirish”dir.

3.2. Qissadagi mifologik talqinlar.

Ch.Aytmatovning yozuvchi sifatida shakllanishi murakkab davrda, ya'ni XX asr ikkinchi yarmida jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy bosqichlariga muvofiq holda kechadi. Zotan, bu davr adabiyotimiz tarixida haqiqat nafaqat etika va estetikaning asosiy qonuni sifatida qaror topishi davri, balki bu haqiqatni aytilish uchun keng tarmoqli estetik tizimni, ya'ni Ezop tilini yaratish davri sifatida qolgan davrdir.

Mif – bu, “dunyo haqidagi hikoyatlar” jamuljamligi, nafaqat hikoya qilish orqali ifodalangan, balki “harakatli (ritual, marosim) qo'shiqlar, raqslar va boshqalar” orqali dunyo haqida muayyan tasavvur beruvchi hikoya qilishni o'z ichiga oladi. P.Mirza-Ahmedovanning qayd etishicha, “zamonaviy mifologizm – bu nafaqat mif poetikasi, balki u murakkab g'oyaviy-badiiy qarashlar majmuini qabul qilgan dunyoni idrok etishni ham o'z ichiga oladi”. Tadqiqotchi qissalar misolida Ch.Aytmatovning mifolog sifatida tarkib topishini ko'rsatadi, yozuvchining qadimgi miflarni talqin qilishdagi novatorligini ham, hozirgi zamon metaforasi sifatida mifologik obrazlarni qayta yaratishini ham isbotlab beradi. Yozuvchi uchun miflardan foydalanish ko'proq bugungi zamonni qadimiylilik nigohi asosida tushunish va ertangi kunga nazar tashlashga urinishdir.

“Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” asaridagi Luvr o'rdak obrazi etnogenik mifni o'zida namoyon etadi. “Ushbu qissa adabiyotning folklore uchun xos bo'lgan shartli vaqt kategoriyasi, obrazlar tizimi, folklore shakllari va ularda jamlangan xalqchil, milliy-ma'naviy tajtibalarni o'zlashtirish yo'nalishidagi yangi qadamidir... Eng munimi, qissa hozirgi adabiy jarayonning muhim tendensiyalarini o'zida aks ettiradi”. O'rganilgan davr adabiyoti rivojlanishida eng muhim bosqich yozuvchilar tomonidan roman va ertaklar janrlari yagona makonda o'zaro ta'sirda bo'lib va rivojlanib, mutloq yangi birlik roman-ertakni hosil qilgan reallik va zamonaviylikka erishish prinsipining kashf qilinishi bo'ldi. Ch.Aytmatovning “Oq kema”, “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissalarida, M.Bulgakovning “Usta va Margarita” romanida real voqealar rivoyat, mif, ertak, afsona bilan birga kechadi. Ruz mumtoz

adabiyoti, xususan, N.V.Gogol, F.Dostoyevskiy, Lev Tolstoy an'analari yo'lidan brogan Ch.Aytmatov shartlilik va reallikni ana shu tarzda birlashtiradi.

Adabiyotshunos va tanqidchilar Ch.Aytmatovning bu qissasi va E.Xemingueyning "Chol va dengiz" qissasi o'rtasida yaqinlik borligin qayd etishgan. Aftidan, Ch.Aytmatov, V.Rasputin, I.Bunin, E.Xemingueylarning poetic olamlaridagi o'xshashlik xususiyatlari g'oyalarni bir-biridan olish va o'zaro ta'sir natijasi emas, ablkı jahon nasrida umuminsoniy tendensiyalarning rivojlanish oqibati, yozuvchilarning insoniyat kelajagi, dunyoning taqdiri haqidagi o'y mulohazalarining umumiyligidan guvohdir.

"Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasi – mifologik doston. Ch.Aytmatovning bu qissasidagi miflar reallikni o'zidir va muallif bunda epik hikoya qiluvchi rolida namoyon bo'ladi. A.F.Losev bunday ijodkor haqida "Epik ijodkor – bu tarixan jamoaviy-urug'chilik bosqichidagi xalqning ongi bilan aynan o'xshash bo'lgan kishi ongidir..., bunda shu kabi ong o'ziga mos keluvchi badiiy shakllarni tanlaydi" degan edi. Yozuvchining dunyoni idrok qilishi butun qissasini qamrab olgan miflar orqali ochib beriladi.

Bu qissada mifda hikoya qilinishicha, Koinot avval boshida faqat suvdan tashkil topgan va Luvr o'rdak insoniyat naslining ilk yaratuvchisi bo'lib, yerdagi hayotga asos slogan:

"Luvr o'rdak esa, ha, hozir ham har kuni tepamizdang'ag'illab to'dasi bilan uchib o'tadigan o'sha o'rdak, ilgari dunyoda yolg'iz, yakka o'zi yashardi. U samoda tanho uchib yurarkan, tuxum qo'yishga ham tangaday joy topolmasdi. Chunki olamda suvdan boshqa hech bir narsa , uy qurish uchun hatto birorta xas ham yo'q edi.

Luvr o'rdak qo'nadigan joy topolmay faryod chekar, chidolmayman, tuxumimni tubsiz girdobga tushirib yuboraman, deb yuragi shovillardi. O'rdak qayoqqa yo'l olmasin, qay tarafga uchmasin, qanotlari ostida shovullab yotgan to'lqinlarni ko'rardi – chor-atrofni hadsiz hududsiz, avvaliyu oxiri yo'q mahobatli suv qoplab olgan edi. Uchaverib holdan toygan, majolsiz o'rdak uya qurish uchun butun olamda biror parcha yer yo'qligiga ishonch hosil qildi.

Shunda o'rdak suv ustiga qo'ndi-da, ko'ksidagi patlardan tumshug'I bilan yulib olib, o'ziga uya qurdi. Xuddi mana shu suzib, qalqib yuruvchi uyadan yer paydo bo'la boshladi".

Qissada nivxlar miqlaridan foydalanilgan, ularning madaniyati hozir ham xalq ongida yashaydi. Aynan shu bois obraz-simvollar "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasining g'oyasini tushunish va talqin etishda asosiy rol o'ynaydi. Bu nafaqat butun insoniyat naslining ilk yaratuvchisi bo'lgan Baliq – ayollar, balki majusiylilik madaniyatida xudolarga tenglashtirilgan asosiy stixiya (unsur)lar obrazlari - Suv (dengiz), Yer (quruqlik) va Osmon (qush, yulduzlar)ga tenglashtirilgan:

"Rutubatli, izg'irinli, qop-qorong'u tun qo'ynida hayhotday yastanib yotgan Oxota dengizi sohillarida tabuatning ikki qudratli kuchi – Quruqlik bilan Dengiz o'rtasid aazaliy, tinimsiz kurash davom etadi: Quruqlik Dengizning asov to'lqinlariga to'sqinlik qilishga intiladi, Dengiz esa Quruqlikka hujum qilishda tinim bilmaydi.

Olam olam bo'lib yaralganidan buyon, tun kundan tug'ilgan, kun tundan tug'ilgan zamonlardan buyon ahvol shu – ikki qudratli kuch o'rtasidagi olishuv davom etadi: bundan buyon ham kunu tun, tunu kun, toki yer bilan suv bor ekan, ular abadul abad shunday kurashveradi.

Kunu tun, tunu kun..."

Hayot va Naslning shart-sharoiti bo'lgan stixiyalarning abadiy kurashii ham alohida odamning, ham butun bir xalq hayotining kechishi va rivojlanishini belgilab beruvchi bir qator antagonistic axloqiy-falsafiy kategoriyalarni o'zida aks ettiradi.

Obrazlar tizimida qariya O'rxon obraziga aham (keksalik, hayot shomi, umr yakunini his qilish), o'smir Kirisk obraziga ham (navqironlik, hayotning ibtidosi, umidvorlik) muhim ahamiyat berilgani tasodif emas.

Olamning ibtidosiga insoniyat nasli hayotining asosi sifatida sabab bo'lgan qarama-qarshi stixiyalar inson mavjudligini hayot va o'lim o'rtasidagi abadiy kurash – axloqiy stixiyalar konflikti orqali belgilab bergan. Bu abadiy konflikt yozuvchining o'zi tarafidan fojea sifatida belgilanadi: "Mendan ko'pincha nega

ijodiyotingizda fojeaviylik ustun turadi? Deb so'rashadi. Men doimo bu holat menga bog'liq emas, deb javob beraman. Inson – o'z holicha chuqur fojeaviy mavjudot. U o'z atrofidagi hayotni salgini anglay boshlasa, bir kun kelib hayotdan ketishini tushunadi. Uning fojeasi mana shundadir”.

Bir kishining fojeaviy taqdiri butun urug'ning fojeasiga aylanmasligi uchun, yana bir sitixya – Osmon mavjud, u boshqa barcha stixiyalar kurashini tartibga soluvchi Hayot qonunini belgilaydigan oily taqdirning ramzini o'zida ifodalaydi. Shu bois ham shomon tomonidan Kirisk uchun qo'riqlovhchi bo'lgan Yulduz belgilanadigan bayram muhimdir:

“O'yin tushayotganlar ichida eng donosi – shomon, u Yer va Suv bilan suhbatlashadi. Yangi yosh ovchi Kirisk to'g'risida gaplashadi. Ha, shunday, shomon yosh ovchiga hamisha xayrixoh, mehribon bo'linglar, deb Yer, Suvga iltijo qiladi. Yerda va Suvda shu bola ulug' mergan bo'lib yetishsin, u doimo topgan o'ljalarini yoshu qariga odillik bilan ulashib berib tursin, deb duo qiladi. Dono shomon yana zikr tushib, Kirisk ulg'ayib, bola-chaqali bo'lsin, ulug' Suv parisi – Buyuk Ona baliq avlodi ko'paysin, hamisha avlodiga avlod qo'shilsin, deb duo-iltijo qiladi” (10-bet).

Biroq bu bayram faqatgina ovdan so'ng bo'lib o'tishi mumkin. U aslida stixiyadan oldingi sinovdir, ya'ni odam avval o'zining yashashga haq-huquqini isbotlab, taqdirini sinab ko'rishi lozim, faqat shundagina u olamning qo'riqlovchisiga aylanadi va faqat shundagina odam o'zi hamda o'z naslini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

“Bayramda o'yin-kulgu, shovqin-suron bilan shunday qo'shiqlar kuylanadi. Ana shu bayramda Kirisk taqdirida yana bir muhim voqea yuz beradi. Jazava bilan raqsga tushayotgan shomon ovchi Kirisk taqdirini osmondagi yulduzlardan biriga topshiradi, “Bolaga hamisha panoh bo'lg'in” deydi. Axir, har bir ovchining o'ziga tegishli, o'z panohida saqlaydigan yulduzi bor-da, Kiriskning taqdiri qaysi yulduzga topshirilganini hech kim, hech qachon bilmaydi. Buni faqat shomonu o'sha noma'lum panohkor yulduz biladi. Boshqa hech kim bilmaydi. Osmon to'la yulduz bo'lsa...” (10 – bet).

Ch.Aytmatovning bu qissasida ilk bor Taqdir-osmon mavzusi insoniyat nasli hayoti davomining shart-sharoitlari sifatida paydo bo'ladi, u keyinchalik yozuvchi falsafasining umuminsoniy yo'nalishida yetakchi o'rin egallaydi.

Muallif o'z qahramonlarini bekorga o'yma qayiqqa joylamaydi, u qahramonlar – matonat va insoniylik sinovidan o'tadigan chek-chegarasiz suv stixiyasida suzib yurgan quruqlik zaminning bir parchasi. Qayiq (tumanlikda suzib yurgan beshik) yer yuzidagi umuminsoniy hayotning ramziga aylanadi.

“Taqdir bor, taqdir bor narsa”, - deb uqtiradi yozuvchi. Kirisk uchun bunday tasodifiy qutqarilish vaziyati yuzaga keldi: uning boshi uzra ko'pdan beri kutilgan qutb boyqushi Agukuk uchib o'tadi, u Yerga tomon bexato yo'lni ko'rsatadi; yo'lchi shamol paydo bo'ladi. “Agukuk!” – qichqiradi u qushning ketidanva qayig'ini o'sha toomnga yo'naltiradi.

“Kirisk rul eshkagiga mahkam yopishib olib, zo'r berib tirishar, qolgan-qutgan kuchini arang jamlab, boshqa hech narsaga e'tibor bermay, faqat shamolning yo'nalishini va qushning uchib ketgan tomonini yodda tutardi”(73- bet).

Kirisk qariya O'rxon, Emrayin ota, Milxun amakisiz qadrdon olapari yoniga qaytib keladi. Ular o'sha yerda, dengizda qolishadi, U yerda qolib, mangulikka o'tishdi. Uchovlon jasorat ko'rsatib, o'z hayoti evaziga ularning ishi, hayotining davomchisi bo'lgan bolani qutqarishadi.

Rivoyatning ibratli xarakteri qissaning falsafiy mohiyatini ochib beradi. O'rxonning shamoli, Emrayinning yulduzi, Milxunning to'lqinlari – bualr shunchaki chiroyli epitelar emas, balki tabiat stixiyalarini anglatuvchi ramzlar sifatida qabul qilinadi. Bu uchovlondan hech biri bola uchun izsiz yo'qolib ketmaydi, ular Tabiatning o'zi sifatida, Koinot sifatida uning o'zida yashaydi.

Qissaning “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” deb nomlanishining o'zi ramziy ma'noga egaki, u asar kompozitsiyasida muayyan g'oyaviy-tematik rol ni o'ynaydi. Olapar – dengiz sohilidagi qoya. O'zining chizgilariga ko'ra, u Olaparni eslatadi. U bamisoli baliqchilarni ovga kuzatadigan yoki sohilbo'ylab chopayotgan it kabi tasavvur hosil qiladi. Olaparga o'xshagan bu qoya insoniylik, olijanoblik, bag'rikenglik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Koinot doimo o'zgarib boradi,

odamlar yashaydi va o'ladi, qoya esa abadiy turadi. O'zining matonati, bardoshliligi bilan Olapar odamlarga yordam beradi, ularga ruh bag'ishlaydi.

Qissada insonning paydo bo'lishi Baliq – ayol haqidagi mif bilan bog'liq; nivxlar Ruyfingunlar naslidan tarqalgan Baliq – ayollar o'z o'limidan so'ng ham Suv (Dengiz)ga ketishadi.

Yolg'iz o'zi qolgan, och-nahor, kuch-quvvatsiz Kirisk o'zini dengizga tashlamoqchi bo'ladi. Biroq bolada buning uchun quvvat yo'q. *“Tizzalab turib, qayiqning chetiga osilib qoldi. Qo'llarini qayiqdan nariga cho'zdi, ammo o'z tanasini qayiqdan uloqtirishga qurbi yetmay, osilganicha qoldi. Keyin eas shunchalik toliqdiki, bochkada qolgan suvni ichishga ham urinmay qo'ya qoldi”* (71– bet). Yulduzlar azob-uqubatda qolgan ovchini hayotga qaytaradi. Dengiz to'lqinlari uning qayig'ini sohilga chiqarib tashlaydi. Kiriskning quruqlikka chiqib olishi hayot tantanasini, inson nasli davom etajagni anglatadi.

Chingiz Aytmatov miflarining o'ziga xosligi haqida shuni aytish mumkinki, mif axloqiy muammolarning butun bir tiizmini ifodalash va rivojlantirishning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Ezgulik va yovuzlik, xotiralash va unutish, hayot va o'lim, muhabbat va nafrat, sadoqat va xoinlik kabi muammolar hozirga kungacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Zotan, tarixiy xotirasiz yashab bo'lmaydi. Biz shunga aminmizki, bunday yozuvchilarning asarlari o'sib kelayotgan avlodlar uchun axloqiy tarbiya va ibrat manbai sifatida tarixiy xotira tuyg'usini uyg'otishi lozim.

3.3. Asarda tarjimon mahorati.

Shunday ijodkorlar bo'ladiki, ularning ajoyib asarlari o'z ona diyorida, o'z ona xalqi orasidagina keng shuhrat qozonib qolmasdan, balki jahon kitob muxlislari tomonidan ham qizg'in kutib olinadi, nomi tillardan-tillarga dillardan-dillarga o'tadi. Ana shunday qalam sohiblaridan biri Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovdir. Hozir uning butun ijodi adabiyotimizning ko'rkiga aylandi.

Haqiqatdan ahamiyatli asarlarining kuchini, qimmatini haqiqiy belgilaydigan mezonlardan biri ham xalq mehridir. Shuning uchun ham Chingiz Aytmatov: "Agar sening asaring kitobxonlarni hayajonlantirsa, bu – baxtdir", - degan edi.

Chingiz Aytmatov qardosh xalq yozuvchilarining yirik namoyondalari bo'lmish Muxtor Avezov, Oybek, G'afur G'ulom, Mirzo Tursunzoda, Berdi Kerboboyev, Rasul Hamzatov, Mirzo Ibrohimov, Abdujamil Nurpeisov, Taxavi Axtanov va boshqalarni hurmat bilan tilga olib, ularning ijod chashmalaridan bahra oldi. Mana bualarning hammasi ijodkor uchun katta ijod maktabi rolini o'ynab, uning mahoratini oshirdi, qalamini o'tkirlashtirdi. Saxiyqalb qalam sohibi darajasiga ko'tardi.

Chingiz Aytmatov asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, keng kitobxonlar ommasiga havola etishda Asil Rashidov xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. Chunki u tarjimon, hassos ijodkor asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilar ekan, unga astoydil qo'l urib, asl nusxa ruhini to'la saqlagan holda, o'iga xos xususiyatlari bilan to'la-to'kis yetkazib bera olgan. Shuning uchun ham Chingiz Aytmatov: "Menga ixlos qilib kitoblarimni o'zbek tiliga tarjima qilgan do'stlaringa, ayniqsa adabiyotshunos Asil Rashidovga tashakkur aytmoqchiman. Chunki mening "Oq kema", "Jamila", "Alvido, Gulsari" kabi bir necha povestlarimni Asiljon o'zbekchaga xuddi men qirg'iz tilida yozganday jarangli tarjima qila oldi", - deganida butunlay haqlidir.

O'zbek kitobxonlari Chingiz Aytmatov asarlarini o'z ona tillarida o'qir ekan, unda qardosh qirg'iz xalqi hayotini, urf-odatini, serfayz tabiatini, bunyodkorligini ko'rib orom olmoqdalar. Qirg'iziston tog'lari bilan cho'llarini, bog'u bo'stonlarini, mehnat kishilarining buyuk insoniy fazilatlarini ko'rib hordiq chiqarmoqdalar.

Ularga bo'lgan mehr-muhabbati uyg'onib, do'stlik va birodarlik tuyg'usi barq urmoqda.

Ana shunday shoh asarlar qatorida adibning "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasi tarjimasida ham A.Rashidov va M.Mahmudovlarning tarjimonlik mahorati yuksak darajada ko'zga tashlanadi.

Qissaning har bir gap qurilishida, so'z qo'llash bilan bog'liq ijodkotlik pozitsiyasini ko'rsata olgan tarjimonlar asarning umuminsoniy xususiyatlarga boyligini o'zbekona ifoda etadi. Zotan, adabiyotshunoslar ta'rificha, umuminsoniy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari asosan quyidagi paradigmalarda zamirida yoritiladi:

- milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda, barqaror umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lish;
- o'z milliy an'analariga, shuningdek, o'zga makon va zamon munosabatlarida bir-biriga bog'lanmagan adabiyotlarga tayanish;
- jamiyat ongida hamda badiiy an'analar zamirida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish;
- adabiyotni milliy ruh negizida tushuniladigan umuminsoniy qadriyatlarga qaratish va yo'naltirish. Bu yerda umuminsoniy qadriyatlarni milliy o'ziga xoslik zamirida tushunish, ayni paytda, umumiy sifat va xususiyatlarga ega bo'lish asosiy mezon hisoblanadi.

Bular natijasida kitobxonda turmush tarsi, urf – odatlari, na'analari, madaniyati jihatidan bir-biirdan farq qiluvchi xalqlar adabiyoti bilan tanishish va tushunish imkoni shakllanadi hamda muayyan milliy adabiyotga o'ziga adabiyotlarning badiiy mahorat va uslubiy qirralari integratsiyalasha boradi.

Buning ustiga Ch.Aytmatovning ijodiy bilingvizki o'ziga xos tarzda bo'lib, qissaning adabiy xususiyatlarini namoyon etishda turli qarashlar mavjudki, bu holatda quyidagi fikrlarni ham tahlil etish joiz.

Ijodiy bilingvizmning muxaliflari ichida uni "tasodifiy hol" hisoblanib, u yoki bu ijodkorning "bevosita tarjimayi holi" bilan bog'liq deguvchilar ham bor. Gruzin olimi V.L.Machavariani Ch.Aytmatovning ikki tilda ijod qilishi ustida to'xtalib,

jumladan shunday deydi; “Chiungiz Aytmatovning ikki tilda ijod qilish borasidagi shaxsiy tajribasini umumlashirishning hech qanday hojati yo’q, chunki bu tajriba “uning tarjimai holi va taqdiri taqozosi” bilan bog’liqdir. Bizningcha Vl.Machavariani bu o’rinda bir qator bahs talab nazariy kamchiliklarga yo’l qoygan. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, Vl.Machavariani aytgani kabi, yozuvchining (jumladan ikki tildaijod qiluvchi ijodkorning) tarjimai holi “tasodifiy” bir narsa bo’lmay, bevosita yozuvchi ijodi uchun asos bo’lib xizmat qiluvchi muhim omildir. A.Qahhor ta’biri bilan aytganda, yozuvchi o’zining hayotiy kechinmalarini, ya’ni tarjimayo holi va taqdir taqozosi bilan ro’y bergan voqea-hodisalarni “qayta bichib, qayta tikadi”. Natijada ular “adabiyot tarozusiga solib yozilgan” (A.Qodiriy) go’zal satrlarga aylanadi. Mana shu fikrning o’ziyoq gruzin olimining Ch.Aytmatov ijodiy bilingvizmini uning shaxsiy tarjimai holi bilan bog’liq “tasodifiy” hodisa sifatida qarashi asossiz bir narsa ekanligini ko’rsatadi.

Vl.Machavarianining yana bir xatosi – alohida bir yozuvchi tajribasini umum adabiyotga xos tajribadan ajratib talqin qilishidadir. Chunki har bir yozuvchining individual ijodiy tajribasi bevosita umum adabiy jarayon bilan mushtarak holda namoyon bo’ladi. Shunday ekan, Ch.Aytmatovning ijodiy bilingvizimni umum adabiy jarayondan ajratib, “tasodifiy hol” deb atashga asos yo’q.

Ikki tilda ijod qilish yoki har ikkala tilni bilgan holda faqat ikkinchi tilda ijod qilish – adabiyotlar ravnaqi, xalqlarning do’stlashuvi yo’lida xizmat qilib kelayotgan ijobiy hodisadir. Ijodiy bilingvizimni tabiiy hol ekanligini e’tirof etgan I.Stanishin shunday nuqtayi – nazarni bayon qiladi: “Odatda tabiatan yukasik qobilyat sohiblari bir necha tiulda yoza oladi. Ular ijodining “ikkitarafmaligi” hech qachon shaxsning ikkiga bo’linishini anglatmaydi”.

Ikki tilda ijod qilish tarixan mavjud bo’lib bundan keyin ham turli badiiy ko’rinishlarda davom etuvchi ijodit jarayondir.

Yuqoridagi fikrlarning o’ziyoq yozuvchi ijodini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Shu o’rinda “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasini tarjima namunasi sifatida bo’lsa ham o’rganish, badiiy qimmatini belgilashga monelik qilmaydi.

Xullas, iste'dodli bu qalam sohibining asarlari yillar o'tgan sari keng kitobxonlar ommasi orasida keng shuhrat qozona boradi. U qardosh xalqlar orasida, shu jumladan o'zbek yozuvchi va shoirlari orasida ham keng qanot yoyib, parvoz eta boradi. O'zbek va qirg'iz adabiyotlari o'rtasidagi mavjud bo'lgan aloqalar bilan o'zaro hamkorliklarning yangi-yangi qirralarining ochilishida, unga muhim hissa qo'shishda tahsinga sazovor xizmatlar qiladi.

Xulosa

Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning o'limi butun insoniyat uchun tengsiz yo'qotish bo'ldi, go'yo ulkan tog' quladi. Ammo donishmand adibning asarlari uning nomini abadiyatga muhrladi. Har bir ijod mahsulida inson e'tiqodi, erki, kelajagi, butun taqdiri kechinmalari qalamga olinib, o'ziga xos bashorat, da'vat tarzida jarang sochardi. Adibning bir qancha nodir asarlari qatori 1977 – yilda yozilgan “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasi ham bani basharni kelajakka ishinch, avlodlar davomiyligi naqadar buyuk tuyg'u, qudrat ekaniga imkonini komil etadi.

Shunga ko'ra ushbu malakaviy bitiruv ishidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin;

1. Ch.Aytmatov – realist yozuvchi sifatida dovrug' qozongan tengsiz ijodkor. Uning asarlarida Buyuk Turk xalqining dardu quvonchi, g'amu iztirobi go'yo jonbaxsh navo kabi kuylanadi. Uning butun bir hayot va ijod yo'li ana shu navoni tarannum etish bilan nurlanadi. E'tiqod, birlik, vatanag muhabbat, o'zlikni anglash g'oyalari uning asarlarida markaziy o'rin egallaydi. Bunday o'lmas, mnagu g'oyalar silsilasi “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar” qissasida ham kamol topdi.

2. Qissada tanalngan mavzu va unga singdirilgan g'oya garchi milliy ruhda yozilgan bo'lsa-da, bashariyatga daxldordir. Asarning mavzusi ajdodlar zakosi va avlodlar idroki, o'tmishdan uzilmay ertangi kun umidi bilan yashahs tasviridir. Bu muallif uzoq shimol o'lkalarida yashovchi nivxlarning bir necha avlodi taqdiri haqida so'z yuritib, ularning ulkan o'rmonda dahshatli zulmat qo'ynida qolib ketgani va hayot-mamot jangi bo'lgani bilan isbotlaydi.

Ana shu isbot asar bosh g'oyasining o'quvchida tezroq yetib borishini ta'minlaydi. G'oya kelajak avlodning barhayot mavjudligi, millat, elatning butunlay yo'qolib ketishidansaqlaydigan eng muhim omildir. Asardagi mavzu uning g'oyasi ulkan mafkura darajasidagi qarash ekanini ko'rsatib turadi.

3. Asarda shakl va mazmun mutanosibligi uning mavzu va g'oyasiga tayanadi. Qissaning janriy xususiyatlari, tasvir obyektlari, obrazlar tizimi shakl jihati bo'lsa, unda ko'tarilgan g'oya ezgulikka, insoniyat kamolotiga xizmat qila oladigan qarash

uning mazmunidir. Asarda shaklning mazmundan, mazmunning shakldan o'zib ketmaganligi uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy asosdir.

4. "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasining obrazlar tizimi ham o'ziga xos bo'lib, ta'kidlaganimizdek, qissada inson shaxsi birinchi planda turadi. Asarda otaning o'g'ilga, o'g'ilning bolaga, og'asiga munosabati, umuman qissadagi har bir kishining o'zaro aloqasi go'yo jonli tarzda ifoda etiladi. Ayniqsa, Kirisk obrazi va O'rxun bobo personaji avlodlar silsilasida muhim o'rin egallaydi.

5. Asar muvaffaqiyatini ta'minlovchi vositalardan biri shundaki, unda ham muallif boshqa ko'plab asarlari qatori ramziylikka keng o'rin bergan, shu orqali asardagi har bir detal o'zicha g'oya yukini tashigan. O'quvchida esa izlanish, qunt bilan o'qish xususiyatlari shakllanishida ahamiyat kasb etgan.

6. Asarning badiiy xususiyatlari qay darajada ekanini tabiat manzaralari tasviri ham belgilaydi. Qissada tun, dengiz, uning sohil bilan olishuvi, ob-havoning sovuq, izg'irini, quyuq tuman, bo'ron tasvirlari badiiy asar badiiyligini ashiruvchi omillardir.

7. Asar qimmat, quvvatini oshiruvchi eng asosiy vosita mifologiki manzaralarning aks etganidir. Ayniqsa, Luvr o'rdak, Ona baliq, ko'k sichqoncha timsollari qissaning mifologik doston sifatidagi badiiyatini ko'rsatadi.

8. Asarni o'z tilida yozilgan ijod namunasi kabi o'qish uchun tarjimon mahorati ustuvor o'rinda turadi. Qissa tarjimasida mutarjimlarning so'z qo'llash bilan bog'liq iqtidori yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, qahramonlar holati, tabiat tasvirlarini berishda asosiy tarjimonlik tamoyillari ko'zga tashlanadi.

Xullas, Chingiz Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" qissasini o'rganish, uning kompleks tahlilini amalgam oshirish ijodkorning nafaqat turkiy xalqlar, balki butun dunyodagi kitobsevarlarning dunyoqarashi, ruhiy tamoyilini shakllantiradigan omillardan hisoblanadi.

Zero, adibning nafaqat bu qissasi balki, butun asarlar jamlanmasida insonning kelajagi, hayot tarsi, ongi shuuri badiiy ifoda topib boraveradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент, “Шарқ” нашриёти.1999.
2. Каримов И.А. Буюк келажак сари. Тошкент, “Ўзбекистон”. 1999-686 бет.
3. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият . Тошкент , “Ўзбекистон”. 1994. 160 бет.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”. 2008, 178-б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент, “Ўзбекистон “ . 2011, 432-б.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат мафкура. Тошкент, “Ўзбекистон”. 1996, 1-жилд, 364 бет.
7. Адабиёт назарияси. Тошкент. “Фан” нашриёти. 1979, 2-жилд. 197 бет.
8. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент,“Ўқитувчи” нашриёти.1967, 300 бет.
9. Айтматов Ч. Алвидо, эй Гулсара. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1963.
- 10.Айтматов Ч. Асрга татигулик кун:, Қиёмат: романлар /рус тилидан А.Рашидов, И.Ғафуров тарж./ Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1989. -560 бет.
- 11.Айтматов Ч. Охир замон нишонлари: (Роман). Чингизхоннинг оқ булут: (Қисса). (рус тилидан С. Қораев тарж.). Тошкент, “Шарқ” нашриёти. 2001. 352 бет.
- 12.Айтматов Ч. Повестлар. Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти 1987.
- 13.Айтматов Ч. Оқ кема. Тошкент, “Адабиёт ва санъат ” нашриёти. 1973.
- 14.Айтматов Ч. Соҳил ёқалаб чопаётган олапар: (Қисса) А.Рашидов, М.Махмудов тарж. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти . 1984.
- 15.Айтматов Ч. Танланган асарлар. Икки томлик. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1978.-408 бет.
- 16.Айтматов Ч. Танланган асарлар. Т. 2. Қиссалар. Роман. Тошкент, 1983, 494 бет.

- 17.Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”. 1983.
- 18.Искандарова О. Тирик жонни маҳв этма // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” 1992. 3-июл.
- 19.Каримов М. Чингиз Айтматов. “Тулистон” журнали. 1988. 12-сон.
- 20.Мирзаев И. Адабиёт ва давр дарди. Тошкент, “Фан” нашриёти. 1990.
- 21.Муродов Ғ. Мозий ва бадий адабиёт. Бухоро, “Бухоро” нашриёти. 1996.
- 22.Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараккиёти. Тошкент, „Фан” нашриёти. 2005.
- 23.Мақсуд Сатторов . Чингиз Айтматовнинг бадий кашфиётлари. //”Жаҳон адабиёти” журнали. 2009-йил, июнь.
- 24.Мамажонов С. Теранлик: Адабий жараён ва адабий танқид. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1987.
25. Қодиров П. Кун чиқардан таралган зиё // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси .1988. 10-декабр.
- 26.Қўшжонов М. Хаётнинг ички тўлқинлари. Қалб ва қиёфа. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1978.
- 27.Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1970.
- 28.Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1968.
- 29.Саломов Ғ. Ранж ва ганж. – Чингиз Айтматов Асрга татиғулик кун. Қиёмат. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти . 1989.
- 30.Сейданов Қ. Адабий ҳамкорлик. Тошкент, “Фан” нашриёти. 1978.
- 31.Султонов И. Адабиёт назарияси. Тошкент, “Ўқитувчи ” нашриёти. 1985.
- 32.Турдиев Ш. Ҳаётбахш традициялар. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1981.
- 33.Тўқсонов.Қ. Сулаймонов Ш. Адабиётшунослик атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. “Бухоро” нашриёти . 2008

34. Ёқубов О. Жаҳонни забт этган истедод. // “Ўзбек адабиёти ва санъати” газетаси. 1988 10- декабр.
35. Шарофиддинов О. Истеъдод жилолари. Тошкент, “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1976.

M u n d a r i j a:

1. Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	7
2.“Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissa janrining beqiyos namunasi.....	9
3. Asardagi obrazlar olami.....	26
4. Asarning badiiy xususiyatlari.....	35
5. Xulosa.....	49
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	51